



O'zbekiston Respublikasi  
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

# Postda На посты

2023-yil  
21-sentabr  
payshanba

№ 38 (4628)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: [www.postda.uz](http://www.postda.uz) / E-mail: [info@postda.uz](mailto:info@postda.uz)

## INSON QADRI E'TIBORDA



Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Po'lat Bobojonov Farg'ona viloyatiga qilgan safari chog'ida vaqtincha foydalanilmay turgan binoda soha xodimlari va faxriylarini davolashga ixtisoslashgan gospitalni ishga tushirish borasida topshiriq bergen edi. Yaqinda qisqa muddatda qurib bitkazilgan ushbu tibbiyot muassasasi foydalanishga topshirildi.



# ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ

## ИЧКИ ИШЛАР ВАЗИРИНИНГ

### МАМЛАКАТИМИЗ АҲОЛИСИГА

### МУРОЖААТИ

**Мұхтарам отахон ва онахонлар! Азиз опа-сингиллар! Қадрли ёшлар! Хурматли юртдошлар!**

Бугунги кунда мамлакатимизда барча соҳалар қатори ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари фаолияти самарадорлигини ошириш, тизим фаолиятини мутлақо янги, замонавий босқичга кўтариш, соҳа ходимларининг аҳоли турли қатламлари билан доимий мулоқоти ва ҳамкорлигини янада мустаҳкамлаш борасида ҳам улкан ишлар амалга оширилмоқда. Бундан кўзланган мақсад ички ишлар органларини ушбу тизимда хизмат қилаётган ҳар бир ходим жамиятимизда тинчлик ва осойишталикни, жамоат тартибини сақлаш йўлида чин дилдан хизмат қиласидан ҳалқчил профессионал тузилмага айлантиришдан иборат.

**Янги Ўзбекистон-да «Инсон қадри учун» эзгу ғояси давлатимиз сиёсатининг устувор йўналишига айланди. Инсон қадри улуғланаётган ана шундай тарихий шароитда қишлоқ, овул ва маҳаллаларимизда тинчлик ва осойишталикни таъминлаш бора-сида барчамизнинг зиммамиздаги масъулияти вазифалар янада ортиб бормоқда.**

Ички ишлар органларини тубдан ислоҳ қилиш жараёнларида жиноятчиликка қарши курашиш, ижтимоий хавфли қилмишларни фош этиш ва барвақт олдини олиш борасидаги ёндашувлар тубдан ўзgartирилди.

Бугунги кунда ички ишлар тизимида ҳар бир раҳбар ва ходимнинг кундалик хизмат фаолиятида рақам ва фоизлар ортидан қувиш эмас, балки фуқароларнинг ҳақ-ҳуқуқларини амалда ҳимоя қилиш биринч галдаги вазифага айланмоқда.

Жиноятчиликни янгича услубда таҳлил этиш, ходимлар иш самарадорлигини уларнинг хизмат вазифасини қай даражада сифатли ва малакали ба жаришига қараб баҳолаш

механизми жорий этилгани ишимиз сифати ва мазмунини тубдан яхшилаш имконини бермоқда. Бевосита аҳоли билан ишлаётган ички ишлар органлари соҳавий хизматларининг фаолиятини такомиллаштиришга алоҳида этибор қаратиб келинмоқда.

Худудларда республика ҳуқуқ-тартибот идоралари раҳбарларининг сайёр қабуллари, аҳоли билан бевосита мулоқотлари мунтазам ўтказиб борилмоқда.

**Сектор раҳбарлари томонидан жиноятлар сабабларини «маҳаллабай» ва «соҳабай» муҳокама қилиш ва уларни бартараф этиш борасида ваколатли давлат идораларининг кундалик вазифаларини белгилаш тизими яратилди.**

Соҳани ислоҳ қилиш жараённада ички ишлар органларининг бевосита аҳоли билан ишлаётган хизматлари фаолиятини такомиллаштиришга алоҳида этибор қаратилмоқда. Бу борада «Обод ва хавфсиз маҳалла» тамоилини амалиётта татбиқ этиш доирасида сектор раҳбарлари томонидан ҳуқуқбузарликлар профилактикасини ҳар куни ташкил этиш, аҳоли ўртасида жиноятчиликка нисбатан муросасизлик ҳиссини кучайтириш чоралари кўрилаётгани ҳамда жиноятчиликни «маҳаллабай» тамоили асосида жиловлаш механизми яратилгани ижбий натижага бермоқда.

Тизим фаолияти тарихида илк бор Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепцияси қабул қилинди. Ушбу концепция асосида аҳолини таҳдидлардан кафолатли ҳимоя қилиш билан боғлиқ алоҳида вазиятларда жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг ягона бошқарув тизими яратилди, бунга муносаб ҳиссасини қўшадиган ваколатли идоралар белгиланди.

Барча ҳудудларда жамоат хавфсизлигини таъминлаш бўйича ҳолат ҳалқ депутатлари кенгашларида муҳокама қилиб келинмоқда. Бу борадаги аҳволни яхшилаш

бўйича ҳудудий дастурлар ишлаб чиқиши тартиби жорий этилди. Қатор янгича иш услублари амалиётга татбиқ этилди, патруллик хизмати замонавий моделлар асосида ташкил этилди.

**Азиз юртдошлар!**

Кейинги йилларда ички ишлар органлари фаолиятида ана шундай ижбий ўзгаришлар рўй берадигани, албатта, барчамизни қувонтиради. Шу билан бирга, бугунги шиддатли ва мураккаб замон олдимизга қандай долзарб вазифаларни қўяётганини барчамиз яхши тушунамиз.

Жорий йил 28 июль куни Фарғона шаҳрида Ички ишлар вазирлиги ҳайъатининг Президентимиз раислигига бўлиб ўтган кенгайтирилган йиғилишида тизимдаги ишлар чуқур тахлил қилиниб, ҳал этилиши лозим бўлган масалалар аниқ кўрсатиб берилди.

Шулардан келиб чиқиб, мавжуд муаммоларга ечим топиш, аҳоли учун хавфсиз яшаш ва меҳнат шароитларини яратиш борасида ички ишлар органлари томонидан қатор вазифалар белгилаб олинди.

**Биринчидан**, бундан бўён асосий этиборни содир этилган жиноят ва ҳуқуқбузарликларни илмий ёндашув асосида вазифаларни аниқлаш ва бартараф этиш масаласига қаратамиз. Эндиликда ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари олий таълим муассасалари профессор-ўқитувчиларини жалб этиб, ҳар бир ҳудуднинг ўзига хос ҳусусиятидан келиб чиқсан ҳолда «намунали ҳудуд методикаси» яратилади. Мазкур ёндашув орқали келгусида ҳар бир маҳаллада ҳуқуқбузарлик ва жиноятчиликнинг асл сабаблари аниқланиб, уларни бартараф этиш чоралари кўрилади.

**Иккинчидан**, аччиқ бўлса ҳам тан олиш керак: тўққиз ярим мингга яқин маҳалланинг 1,5 мингдан зиёдидаги криминоген вазият мураккаблигича қолмоқда. Таҳлиллар кўрсатмоқдаки, маҳалладаги жиноятчиликнинг илдизи кўпинча ижтимоий муаммоларга бориб тақалмоқда.

Шунинг учун ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш бўйича «ижтимоий профилактика» тизимини тўғри йўлга қўйиш орқали профилактика инспектори, маҳалла раиси, ҳоким ёрдамчиси, ёшлар етакчи, хотин-қизлар фаолидан иборат «маҳалла бешлиги» ҳамкорлиги янада кучайтирилади. Маҳалланинг ўзида ўсмирлар, ёшлар ва аёллар ўртасидаги жиноятчиликни кескин камайтириши ҳамда муаммоли фуқаролар билан ишлашини кучайтирган ҳолда криминоген вазиятни барқарорлаштириш чоралари кўрилади.

**Учинчидан**, Ички ишлар вазирлиги, Миллий гвардия ва уларнинг вилоят бошқармалари раҳбар ходимлари, Баш прокурор ўринбосарлари, бошқарма бошликлари ва вилоят прокурорлари энг оғир маҳаллаларга биринчидан криминоген вазиятнига таъсир кўрсатувчи омилларни муҳокама қиласиди, муаммоларни ўрганиб, уларни бартараф этиш бўйича манзилли чора-тадбирларни белгилайди ва назоратини ўрнатади.

**Тўртинчидан**, «Оила – маҳалла – мактаб – мустақил ҳаёт» тамоили асосида тарбияси оғир ўсмирларга вазирлик, идора ва ташкилот раҳбарлари биринчидан, мустақил ҳаётга тайёрлаш даврида улар билан якка тартибида ишлаш тартиби йўлга қўйилади. Бунинг учун «Вояга етмаганлар билан ижтимоий-ҳуқуқий ишлаш кластери» тизими жорий этилади. Бунда ўсмирларни учта тоифага бўлган ҳолда мутасаддилар томонидан «оталиққа олиш» тартиби белгиланди.

Хусусан, жиноят содир этган ёки жиноят қилишга мойил бўлганларга ҳуқуқ-тартибот идоралари раҳбарлари ва раҳбар ўринбосарлари, ижтимоий зарарли хатти-ҳаракат содир этиши мумкин бўлганларга давлат ва жамоат ташкилотлари раҳбарлари ва раҳбар ўринбосарлари, назоратсиз ва қаровсиз қолганларга ҳокимликлар, таълим мусассаси директорлари ва маҳалла раислари биринчидан.

Бунда ижтимоий-машиш музаммоси ҳал бўлмаган оиласидан ишлаш давлат идоралари биринчидан галдаги вазифаси этиб белгиланди. Судда низолашаётган оиласидан манзилли ишлаш бўйича ягона идораларро ахборот тизими ишга туширилади. Бунинг учун суд органларига низонинг мазмунни ва ундан кутилаётган хатарларнинг барвақт олдини олиш бўйича маҳалла ва ички ишлар органларини хабардор қилиш, таҳлилий тавсия бериш вазифаси юклатилади.

**Ўз навбатида, ички ишлар органлари, суд тавсиясига асосан, низоли оиласидан ўрганиб, ҳимоя ордери орқали «оиласидан профилактик чорарларни кўриш, сектор раҳбарлари ва маҳалла раисларига оиласидан майший муаммоларни ҳал этишда яқиндан кўмаклашиш, адлия органлари эса низолашаётган оиласидан манзилли маслаҳатлашув ўтказиб, малакали ҳуқуқий ёрдам бериш ишларини амалга оширади.**

**Олтинчидан**, «Йўл ҳаракати хавфсизлиги – жамоатчилик назоратида» тамоили асосида йилига камида иккى марта ижтимоий сўров ўтказиш, шунингдек, барча йўл-патруль хизмати ходимлари учун маҳаллаларни қамраб оловчи жавобгарлик ҳудудини белгилаб қўйиш амалиёти йўлга қўйилади. Бунда Транспорт вазирлиги ҳузуридаги Автомобиль йўллари қўмитаси ва Ички ишлар вазирлиги йўл ҳаракати хавфсизлиги хизмати томонидан амалга оширади.

оширилган ишлар бўйича Олий Мажлис, маҳаллий кенгашлар ва кенг жамоатчиликка ҳар ярим йилда ҳисобот бериб борилади.

Мамлакатимиз бўйича энг хавфли йўл ва чорраҳалар харитаси шакллантирилди. Ушбу харитада ҳаракатни тартибга солиш учун зарур бўлган светофор, йўл тўсиқлари, ер усти ва ер ости пиёдалар йўлакларининг аниқ сони ва ўрнатилиш жойлари, шунингдек, таъмирталаб, жиддий хавф туғдираётган йўл қисмларининг жойлашуви кўрсатилади. Қорақалпостон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ҳокимлари кўмагида, консультантларни жалб қилган ҳолда, ушбу йўл ва чорраҳаларда тартиб ўрнатиш ишлари бошлиниади.

**Еттинчидан**, сўнгги вақтларда янги турдаги жиноятлар ва уларни содир этиш усуслари пайдо бўлмоқда. Айниқса, ёшлар онгига салбий таъсир кўрсатувчи ёт ғояларни тарғиб этиш, гиёхвандлик ва психотроп

моддаларни истеъмол қилишга жалб этиш, фуқароларнинг шахсий маълумотларини ва мол-мулкини интернет ҳамда ижтимоий тармоқлар ёрдамида ноқонуний қўлга киритиш ҳолатлари кўпайиб бормоқда. Мана шундай вазиятда барчамиз доимо огоҳ ва ҳушёр бўлишимиз, энг асосийси, маҳалла фаоллари, нуронийлар, устоз ва мураббийлар билан биргаликда келажагимиз эгалари бўлган фарзандларимизни жиноят ва ҳукуқбузарликлардан ҳимоя қилишнинг содда ва самарали усуслари амалда қўлланади.

**Саккизинчидан**, шиддат билан ўзгараётган ҳозирги замонда соҳани рақамлаштириш даражасини юксак даражага етказишга алоҳида эътибор қаратилади. Айниқса, аҳолига электрон давлат хизматларини кўрсатиши сифати ва кўламини ошириш, идоралараро ахборот алмашиб бўйича ҳамкорликни кенгайтириш бўйича барча зарур чоралар кўрилади.

Бунга бор кучимиз ва имкониятларимизни йўналтирамиз.

**Тўққизинчидан**, тизимда маънавий-ахлоқий масалаларга эътибор тубдан ўзгаради. Ички ишлар органлари ходимлари ҳар куни минглаб фуқаро билан мулоқотга киришади. Бу жараёнда уларнинг хушмуомала бўлиши, фуқаролар муаммоларига қонуний ечим топиши аҳоли, умуман, жамиятдаги ижтимоий кайфиятга жуда катта таъсир кўрсатади.

**Шу маънода, ўз касбига, хизмат бурчига садоқатли, юрт тинчлиги, ҳалқ манфаати учун хизмат қилишни муқаддас бурчи деб биладиган чинакам фидойи ходимлар ички ишлар органлари зиммасига юклатилган вазифаларни муваффақиятли бажаришда ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Шунинг учун бундан буён ҳам**

**кадрларни тайёрлаш, танлаш ва жой-жойига қўйиш ҳамда тизимни нопок, ғаразли ниятдаги, ўз манфаатларини ҳалқ манфаатидан устун қўядиган шахслардан тозалаш ишлари дикқатимиз марказида бўлади.**

#### Азиз юртдошлар!

Жонажон Ўзбекистонимиздаги бугунги озод ва фаровон ҳаёт, тинчлик ва осойишталик ҳамда фуқароларнинг эмин-эркин яшаб меҳнат қилиши учун яратилган барча шароитларнинг қадрига этиш, Ватанимизнинг бугунги куни ва эртаси учун, касби коримиз, ёшимиз, миллатимиз ва эътиқодимиздан қатни назар, ҳар биримиз ўзимизни масъул деб билишимиз лозим.

Фуқароларнинг ҳаҳукуқларини ҳимоя қилиш, қонун устуворлигини таъминлаш, жамоат тартибини саклаш ички ишлар орган-

лари ходимларининг шарафли бурчидир. Ҳалқ манфаатларига хизмат қилиш соҳа вакилларининг асосий шиори бўлиб қолади.

Ана шундай эзгу ва хайрли ишларда ички ишлар органдари, авваламбор, жонажон Ўзбекистонимизнинг кўп миллатли ҳалқига, жонкуяр ва фидойи маҳалла фаолари, кўпни кўрган нуроний отаҳон ва онахонларимизга, меҳрибон опа-сингилларимиз, хотин-қизлар ташкилотларининг тажрибали вакилларига, инсон қалби муҳандислари бўлган устоз ва мураббийларимизга, ҳал қилувчи куч бўлиб майдонга чиқаётган азму шижоатли ёшларимизга таянади ва суняди.

Қадрли ватандошлар, мамлакатимизда тинч ва осойишта ҳаётни янада мустаҳкамлаш, маҳаллаларимизда ҳукуқбузарлик ва жиноятчиликнинг олдини олишда ягона куч бўлиб, ҳамжиҳатликда ҳаракат қиласайлик!

**Пўлат БОБОЖНОВ,**  
**Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазири.**

«Янги Ўзбекистон» газетасидан олинди.

## INSON QADRI E'TIBORDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Farg‘ona viloyati IIB Tibbiyot bo‘limi qoshida tashkil etilgan yangi gospitalning ochilish marosimida viloyat hokimi

hamda faxriylar yotib davo lanishi mumkin. Shuningdek, bu yerda yuqori nafas yo‘llari, suyak-bo‘g‘im, mushak hamda asab tizimi



Hayrullo Bozorov, viloyat IIB boshlig‘i, general-mayor Azizbek Ikramov, Ichki ishlar vazirligi Faxriylar kengashi raisi, iste‘fodagi general-mayor Erkin Norgitov, faxriylar hamda tibbiyot xodimlari ishtirok etdi.

Ushbu sog‘lomlashtirish markazi 20 o‘ringa mo‘ljallangan bo‘lib, nevrologik, pulmonologik, gastroenterologik, kardiologik va endokrinologik kasallikkalarga chalingan soha xodimlari



kasalliklarini davolashga mo‘ljallangan 10 turdagи zamonaviy fizioterapiya jihatlari o‘rnataligan.

Shuningdek, bu yerda turli janrdagi badiiy adabiyotlarni o‘zida jamlagan shinam kutubxonasi ham tashkil etildi.

– Ilgari biror xastalik bilan og‘rigan xodimlar yoki soha faxriylari vazirligini tizimidagi boshqa viloyatlarda joylashgan davolash-profilaktika muassasalariga borishga majbur bo‘lardi, – deydi

Tibbiyot bo‘limi poliklinikasi mudiri, mayor Akmaljon Tojaliyev. – Endi esa bunday ovoragarchiliklarga o‘rin qolmadi. Bemorlar shu yerning o‘zida davolaniib, salomatliklarini tiklash imkoniyati paydo bo‘ldi. Gospitalning ish boshlashi viloyat ichki ishlar organlari xodimlarini ham, faxriylarni ham birdek xursand qilmoqda.

**Abduvosit SIDIQOV,**  
**o‘z muxbirimiz.**  
Farg‘ona viloyati.



Награжденные Родиной



## ТЕРРИТОРИЯ, СВОБОДНАЯ ОТ ПРЕСТУПНОСТИ

**За минувший период нынешнего года на территории махалли Зарабшон в Арнасайском районе Джизакской области, где проживают более четырех тысяч человек, не зафиксировано ни одного преступления. В этом немалая заслуга старшего инспектора профилактики майора Азизжона Абдусатторова.**

Предрасположенные к совершению правонарушений ранее судимые граждане, состоящие на учете в органах внутренних дел, семьи с нездоровой моральной средой – объекты особого внимания инспектора. С ними майор проводит индивидуальную работу. Не ограничивается пропагандой законопослушания, а старается создать условия, способствующие становлению людей из группы риска на путь исправления. Это оказание материальной поддержки, трудоустройство, решение других вопросов в ситуациях, когда необходимо подставить плечо. В этих делах старший инспектор полагается на поддержку председателя и актив махалли. Организованы совместные ночные патрули.

С начала года А. Абдусатторов представил более ста отчетов с предложениями по решению выявленных проблем населения, оказанию материальной помощи, трудуоустройству. Выявил свыше

80 административных правонарушений. Взял под строгий контроль дорогу, ведущую к Айдар-Арнасайской системе озер, для предупреждения браконьерства и незаконных действий отдыхающих. Обеспечил установку камер видеонаблюдения на всех центральных улицах, в пунктах общественного питания и торговли. На очереди – установка камер идентификации автомобильных номеров и водителей, а также столбов освещения на двух улицах.

Азизжон Абдусатторов родился в селе «Кизилча» Нуралинского района Навоийской области. Окончив Джизакский государственный педагогический институт, последовал примеру дяди, Акрама Абдусатторова, который служил в органах внутренних дел Джизакской области. В 2010–2015 годах нес службу в отделении охраны при ОВД Шараф Рашидовского района (ныне Национальной гвардии). Среди коллег



в системе профилактики правонарушений Арнасайского РОВД пользуется уважением за высокий профессионализм и личные качества.

В период пандемии за вклад в обеспечение общественной безопасности и поддержку социально уязвимых слоев населения

награжден нагрудным знаком «Мехр-саҳоват». В связи с 32-й годовщиной независимости согласно указу Президента страны ему вручена медаль «Шұхрат».

**Алижон АБДУСАТТОРОВ,**

соб. корр.

Джизакская область.



Интенсив синов

## ДОВЮРАК ЖАНГЧИЛАР

Жорий йилнинг 18 сентябрь куни Ички ишлар вазирлиги Қоровул қўшинлари 7533-ҳарбий қисмга қарашли «Қўнғиртоғ» полигонида Қоровул ва Халқаро аэропортларда хавфсизликни таъминлаш қўшинлари ҳарбий хизматчилари ўртасида «Довюрак жангчи» интенсив синовларига старт берилди.



«Довюрак жангчи» интенсив синовларининг ўтказилиши ва якуний натижалари билан газетамизнинг келгуси сонида батафсил танишасиз.



Огоҳлик – давр талаби

## КИБЕРТОВЛАМАЧИЛИК: ОЛДИННИ ОЛИШ УСУЛЛАРИ

Аксарият кибертовламачилик ҳолатлари ижтимоий тармоқларда шахсий маълумотларни оммавий равишда ошкор қилиш орқали амалга оширилади.

Шунингдек, фуқаролар ўзларини ижтимоий тармоқлардаги таҳдидлардан ҳимоя қилиш учун қуидагиларга амал қилишлари тавсия этилади:

- ўзингизнинг шахсий, бошқалар кўрса уяладиган суратингизни ёки бошқа маълумотни яқин инсонингизга, ҳатто, яхши кўрган кишинингизга ҳам юборманг;
- нотаниш интернет фойдаланувчилари билан алоқа ўрнатманг;
- умумий «Wi-Fi» уланиш нуқталаридан иложи борича камроқ фойдаланинг;
- ҳар қандай маълумотни онлайн алмашишдан олдин ўйлаб кўрининг; (Ким менинг шахсий маълумотларимни сўрайяпти? Қандай маълумот сўрайяпти? Нега уларга маълумот керак?)
- ижтимоий тармоқлар орқали шубҳали ҳаволалар келса, асло уларга кирманг.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda\_uz



## КАСАБА УЮШМАЛАРИ ФАОЛИЯТИДА ЯНА БИР ҚАДАМ

Бугунги шиддат билан үзгараётган давр қонун усту-ворлиги, қонунларга итоат-гүйлик ҳамда инсон ҳуқук ва эркинликларини ҳимоя қилиш ва таъминлашни жа-миятнинг барча аъзолари олдидағи энг муҳим вази-фа этиб қўймоқда. Бошқа давлат ва нодавлат ташки-лотлар қатори сўнгги йил-ларда касаба уюшмалари ҳаётида ҳам янги ривож-ланиш даври бошланди. Статистик маълумотларга кўра, мамлакатимиз каса-ба уюшмалари тизимида 34 мингдан ортиқ бошланғич ташкилотлар самарали фаолият кўрсатиб, уларда 6 минг 700 дан зиёд ходим ва 300 мингга яқин фаоллар хизмат қилиб келмоқда.

Қарийб беш ийлдан бўён фаолият кўрсатаётган Ички ишлар ва-зирлиги таркибий бўлинмалари ходимлари бирлаш-ган касаба уюш-маси қўмитасида ҳам айни пайтда 40 та бошланғич ташкилот ва Қорақалпогистон Республикаси, Тошкент шаҳри ва вилоятларда касаба уюшмала-ри қўмиталари, касаба уюшма-лари бошланғич ташкилотлари мавжуд.

Ўтган давр мобайнида амал-даги қонун ва норматив-ҳуқуқий



хўжжатлар, тармоқ жамоа кели-шуви ва жамоа шартномаси та-лаблари доирасида ходимлар, ишчи-хизматчиларга мунтазам

фаолиятида жиддий камчилик-лар кўзга ташланиб қолмоқда. Ана шундай камчиликларни бартараф қилиш ва касаба

уюшмалари қўмиталари фаолиятининг самарадорли-гини ошириш мақсадида Тошкент ви-лояти Бўстон-лиқ туманида жойлашган Ички ишлар вазирилиги-га қарашли «Оқтош» болалар оромгоҳида амалий-ўқув семинар ўтка-зилди.

Кизғин кечган семинар баҳсли муноза-раларга бой бўлди. Мутахассис-лар ўз маъruzalari билан фаол иштирок этиб, семинар қатнаш-чиларини қизиқтирган саволларга жавоб беришди. Фаолият доирасида учраётган муам-моларга ҳам тўхталиб ўтилиб, уларни ҳал қилиш юзасидан маслаҳат ва тавсиялар берилди. Семинарда Қорақалпогистон Республикаси ИИВ, Тошкент шаҳар ва Тошкент вилояти ИИБ ҳамда вилоятлар ИИБ қўмита раислари ва ҳисобчилари келгу-сида касаба уюшмалари қўми-талари, уларнинг бошланғич ташкилотлари фаолиятини янада такомиллаштириш борасида ўз фикр-мулоҳазаларини билдиришиб, таклифлари билан ўртоқлашдилар.

**Ўз мухбиришимиз.**



равишда амалий ёрдам кўрса-тиб келинди. Шундай бўлса-да, касаба уюшмалари қўмиталари

кечган семинар баҳсли муноза-раларга бой бўлди. Мутахассис-лар ўз маъruzalari билан фаол иштирок этиб, семинар қатнаш-чиларини қизиқтирган саволларга жавоб беришди. Фаолият доирасида учраётган муам-моларга ҳам тўхталиб ўтилиб, уларни ҳал қилиш юзасидан маслаҳат ва тавсиялар берилди. Семинарда Қорақалпогистон Республикаси ИИВ, Тошкент шаҳар ва Тошкент вилояти ИИБ ҳамда вилоятлар ИИБ қўмита раислари ва ҳисобчилари келгу-сида касаба уюшмалари қўми-талари, уларнинг бошланғич ташкилотлари фаолиятини янада такомиллаштириш борасида ўз фикр-мулоҳазаларини билдиришиб, таклифлари билан ўртоқлашдилар.

Мустаҳкам тинчлик ва фаро-вонликка фақат умумий интилишлар ва биргалиқдаги ҳаракатлар билан эришиш мумкин. Бизга ўзаро ишонч, бирдамлик ва ҳамкорлик руҳи ҳар қачонгидан ҳам кўпроқ зарур.



Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 78-се-сияси тадбирларида иштирок этди.

Ташриф дастурига мувофиқ, 19 сентябрь куни давлатимиз раҳбари Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеяси ялпи сессиясининг умумий мунозара-ларида нутқ сўзлади ҳамда минтақавий ва глобал кун тартибидаги долзарб масалалар юзасидан ўз нуқтаи назарини баён қилди. Қуйи-да ушбу нутқда кўтарилиган асосий масалалар билан танишасиз.

■ Бирлашган Миллатлар Таш-килоти Бош котиби томонидан ил-гари сурилган «Иш ўринларини яратиш ва ижтимоий ҳимоя глобал акселератори» борасидаги ташаб-буси доирасида тажриба алмашиш учун 2024 йили БМТ шафелигида «Ижтимоий ҳимоя: барқарор та-раққиёт сари йўл» бутунжаҳон кон-ференциясини Ўзбекистонда ўтка-зиш таклиф этилди;

■ Мажбурий ва болалар меҳна-тига қарши курашни бутун дунё миқёсида кучайтириш зарур, деб ҳисоблайман. Бизнинг тажрибамиз шуни кўрсатмоқдаки, бунга чек қўйиш имкони бор;

■ Марказий Осиёни тинч ва гуллаб-яшнаётган ҳудудга айланти-риш Ўзбекистон ташқи сиёсатида бундан бўён ҳам устувор мақсад бўлиб қолади;

■ Бирлашган Миллатлар Таш-килоти ҳузурида Марказий Осиё ёшларини ривожлантиришга қўмак-лашиш бўйича ишчи гурӯҳ ташкил этишни таклиф этаман. Унинг дои-расида «Марказий Осиё ёшлари-нинг кун тартиби – 2030» дастурини ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқ-дир;

■ Келгуси йили Ўзбекистонда Осиё хотин-қизлари форумини ўтка-зиш таклиф этилди;

■ Жаҳон миқёсида динлараро бағрикенглик ва ҳамжиҳатлик ғоя-ларини кенг тарғиб этиш мақсадида Ўзбекистонда ЮНЕСКО шафелиги-да Динлараро мулоқот ва бағрикенг-лик халқаро марказини ташкил этиш таклиф қилинди;

■ 2024 йил Ўзбекистонда «Ислом – тинчлик ва эзгулик дини» мавзусида халқаро конференция ўтказиши ташаббуси илгари сурилди;

■ Мустаҳкам тинчлик ва фаро-вонликка фақат умумий интилишлар ва биргалиқдаги ҳаракатлар билан эришиш мумкин. Бизга ўзаро ишонч, бирдамлик ва ҳамкорлик руҳи ҳар қачонгидан ҳам кўпроқ зарур.



г. Ташкент

# ОНИ – ПРИМЕР ДЛЯ ВСЕХ!

**Махаллинская «пятерка» – сплоченный коллектив, в котором все вместе изучают проблемы каждого гражданина. Цель одна – сохранить мир и спокойствие в махаллях, районах, городах, во всей стране.**



По указу Президента хоким города Ташкента и хокими районов в обязательном порядке раз в месяц должны лично встречаться с инспекторами профилактики и принимать меры по решению выявленных проблем в сфере общественной безопасности. С целью подведения итогов проводимой работы были организованы встречи с участием хокимов и официальных лиц во всех 12 районах столицы. На каждом мероприятии инспекторам профилактики и активистам махаллей был поставлен ряд задач по улучшению жизни людей, обеспечению правопорядка, защите прав граждан.

Недавно состоялась встреча с хокимом города Ташкента, прокурором и начальником Главного управления внутренних дел столицы. На мероприятии рассмотрены проблемы, с которыми инспекторы профилактики сталкиваются в процессе несения службы. Заслушаны их просьбы и предложения в отношении поднятия сферы деятельности на новый уровень. Строго оценивались достижения и результаты, недостатки и ошибки за прошедшие 8 месяцев. Поставлены задачи по устранению недочетов.

На данном мероприятии также состоялась церемония награждения инспекторов профилактики,



добросовестно выполняющих свои обязанности, несущих образцовую службу, добившихся снижения уровня преступности и правонарушений на вверенной им территории. Для увеличения

мобilityности во время дежурств, инспекторам профилактики были переданы 157 современных электроскутеров.

Соб. корр.



**Будни инспектора профилактики**



**Охунжон Алимов родился в 1994 году в городе Гулистане Сырдарьинской области. В 2019 году окончил факультет физической культуры Гулистанского государственного университета. Служебную деятельность начал в 2021 году инспектором профилактики ОПП СОБ ОВД города Янгиера.**

## ЗОНА ОТВЕТСТВЕННОСТИ

**Махалля Шукронова в городе Янгиере Сырдарьинской области расположена рядом с автомагистралью «Ташкент–Джизак». На ее территории проживают порядка трех тысяч человек, находятся несколько административных учреждений и объектов сферы услуг. Уже два года инспектор профилактики лейтенант Охунжон Алимов несет здесь ответственность за правопорядок и спокойствие.**

Первое время молодому сотруднику было нелегко. Сложности доставляли жильцы семейного общежития. Что ни день возникали ссоры на бытовой почве. Еще не познавшему тонкостей семейной психологии сотруднику органов внутренних дел не доставало опыта. Но это, как говорится, дело наживное. Узнав поближе людей, вынужденных делить коммунальные блага, он уже уверенно восстанавливал порядок.

День лейтенанта начинается с дежурства возле местной

общеобразовательной школы № 6. Выступая в роли регулировщика, он обеспечивает безопасность детей, пересекающихся оживленную улицу. При необходимости приструнивает ретивых водителей. С первым школьным звонком инспектор переключается на тех, кто пропускает занятия. Один из таких – ученик 8-го класса Шахриёр. По указанному классным руководителем адресу инспектора профилактики встретила мать мальчика. Выяснилось, что отец Шахриёра пристрастился к спиртному, не заботится

о семье. Подросток подрабатывает на автомойке в соседней махалле, помогая маме сводить концы с концами. Лейтенант решил взять под свой контроль ситуацию в этой семье. Переговорив по телефону с председателем махалли, совместно выработали меры для решения проблемы.

Словом, зона ответственности лейтенанта Охунжона Алимова не ограничивается лишь обеспечением спокойствия и правопорядка. Он один из ответственных за реформы, акцент которых сегодня приходится на махаллинский уровень.

**Абдурахмон МУСТАФОКУЛОВ,  
соб. корр.  
Сырдарьинская область.**



Юксак муроффот соҳиблари

## ФИДОЙИЛИКНИНГ МУНОСИБ БАҲОСИ



**Лавҳамиз қаҳрамони – подполковник Шухрат Бекчанов ички ишлар органларидағи 24 йиллик самарали хизмати билан эл эътирофига сазовор бўлди.**

**Шухрат Бекчанов Қўшкўпир туманидаги энг чекка ҳудудлардан бири саналган Кенагас қишлоғида профилактика инспектори вазифасида хизмат фаолиятини бошлаган.**



**Ү**рилил, гиёхвандлик каби жиноятлар тез-тез содир бўладиган ушбу ҳудуд профилактика инспекторидан катта масъулият талаб этарди. Лейтенант Шухрат Бекчанов ишни ичилилбозлик ва гиёхвандликка берилган фуқароларни мажбурий даволаш муассасасига жойлаштиришдан бошлади. Сўнг муқаддам судланган ҳамда жиноят содир этишга майил шахслар билан муентзам профилактик ишлар олиб борди.

Нотинч оиласардаги муҳитни синчковлик билан ўрганиб, муаммоларга ечим топишга интилди. Асосийси, жиноятларни «иссик изида» фош этишга астойдил ҳаракат қилди. Маҳалла фаоллари, кенг жамоатчилик билан ҳамкорликда олиб борилган саъи-ҳаракатлар самарасини берди: ҳудудда жиноят ва

ҳуқуқбузарликлар йилдан-йилга камая борди.

Орадан 6 йил ўтгач, профилактика катта инспекторига тумандаги Ших қишлоғининг осойишталигини таъминлаш вазифаси юклатилди. У бу ҳудудда ҳам кенг кўлами ишларни амалга оширди. Ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, аҳоли бандлигини таъминлаш, муаммоларга ижобий ечим топишга ҳаракат қилди. Натижада мазкур ҳудудда ҳам жиноят ҳамда ҳуқуқбузарликлар содир этилиши кескин камайди. Хизматда самарали натижаларга эришган қаҳрамонимиз йил якунига кўра вилоятдаги энг фаол профилактика инспекторларидағи бири сифатида эътироф этилди. Шундан сўнг у Қўшкўпир шаҳарчаси ва Хайробод қишлоғи осойишталигини таъминлашда ҳам фидойилик билан хизмат қилди.

Айни кунда подполковник Шухрат Бекчанов тумандаги «Адолат» маҳалласи осойишта-

лигини таъминлашда билим ва маҳоратини, файрат ва шижоатини аямаяпти.

- **Жорий йилнинг ўтган**
- **даврида маҳалла ҳудудидаги 25 нафар**
- **фуқаронинг иш билан**
- **таъминланиши, ажрим ёқасига келиб қолган**
- **8 та оиласа соғлом**
- **муҳитнинг яратилиши,**
- **3 та жиноятнинг барвақт олди олинишида**
- **подполковник Шухрат Бекчановнинг муносиб ҳиссаси борлигини**
- **алоҳида эътироф этиш лозим.**

Албатта, ҳар бир муваффақият – ҳамкорлик ва ҳамжиҳатлик меваси. Ҳудуд осойишталигини таъминлашда маҳалла фуқаролар йигини ради Н.Собиров, ҳоким ёрдамчиси Ш.Собиров, хотин-қизлар фаоли Г.Ҳайитова, ёшлар етакчиси Ж.Ибрагимовларнинг ёрдами билан ижобий натижаларга эришилмоқда. Бун-

дай ҳамкорлик, ҳамжиҳатлик туфайли маҳаллада жиноят содир этилишига йўл қўйилмаяпти.

– Подполковник Шухрат Бекчановни касбининг чинакам фидойиси, десак, асло хато бўлмайди, – дейди маҳалла фуқаролар йигини ради Н.Собиров. – У ҳузурига келган ҳар бир фуқарони диққат билан тинглайди. Дардига қулок тутади, ёрдам беришга, мушкулини осон қилишга интилади. Ўз навбатида, маҳалламиз фуқаролари ҳам унга қўшқанот бўляпти.

Мустақиллигимизнинг 32 йиллиги байрами арафасида подполковник Шухрат Бекчанов Президент фармонига мувофиқ, «Содиқ хизматлари учун» медали билан тақдирланди. Бу унинг хизмат фаолиятига берилган юксак баҳодир.

**Худойберган ЖАББОРОВ,**  
ӯз мухбиришимиз.

*Хоразм вилояти.*

## ОДАМЛАРГА ЁРДАМ БЕРИШ – КЎНГЛИМДАГИ ИШ

**Олтинкўл тумани ИИБ 1-сонли ИИБ профилактика катта инспектори, майор Сардорбек Араббоев Форобий номидаги маҳаллада хизматни олиб боради.**



майор С. Араббоев. – Бу хизматда иш бошлаган кезларим анча қийналдим. Кейинчалик тажрибали устозларим ёрдамида тажрибам орди. Профилактика инспектори учун энг муҳими, аҳоли билан мулоқот қила олиш, ҳудуд аҳоли-сининг ишончини қозониш эканига ишончим комил бўляпти.

Жорий йилнинг саккиз ойи давомида майор Сардорбек Араббоевнинг саъи-ҳаракати билан 200 дан зиёд турли маъмурий ҳуқуқбузарликлар аниқланди. Майор жамоа ишларида ҳам жуда фаол. Касбий маҳоратни доимий равишда ошириб боради.

Яқинда унинг кўп йиллик хизматлари муносиб

эътироф этилди. Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 32 йиллиги арафасида профилактика катта инспектори, майор Сардорбек Араббоев Президент фармонига асосан «Шухрат» медали билан тақдирланди.

– Хизматларим эътироф этилаётгани учун Президентимиздан, вазирлик раҳбариятидан чексиз миннатдорман, – дейди майор Сардорбек Араббоев. – Бу мукоффотни сидқидилдан хизмат қилаётган, ҳалқ осойишталигини ҳамма нарсадан устун кўядиган барча ички ишлар организатори ходимларига берилган баҳо, деб биламан. Бу рағбат мени янги-янги зафарлар, ютуқлар

сари етаклаб, доимо олға юришга ундаиди. Бу ишончни ҳалоллик ва шараф билан оқлашга интиламан.

**Борис КЛЕЙМАН,**  
ӯз мухбиришимиз.

*Андижон вилояти.*

Андижон давлат университетини тамомлаган Сардорбек ички ишлар органларидағи хизмат фаолияти 2011 йилдан бошлаб, бир неча йил Андижон вилояти ИИБ ППХ ва ЖТСБ патруль-пост хизмати батальонида кинолог лавозимида фаолият кўрсатди. 2017 йилдан фаолиятини

профилактика хизмати билан боғлади. 2022 йилдан бўён Олтинкўл тумани ИИБ 1-сон ИИБ профилактика катта инспектори лавозимида хизмат қилиб келмоқда. – Одамларга ёрдам бериш, ҳуқуқ-тартибот ҳимоясида туриш – кўнглимдаги иш, – дейди



Фахрийлар – фахримиз

## ТИЛИДА ҲАМ, ДИЛИДА ҲАМ ЭЗГУЛИК

Қалбидаги самимияти юзига файз бўлиб кўчган одамлар билан сұхбатдош бўлсангиз, эзгу амалларга берилиб яшагиси келади, кишини. Аслида самимият, меҳнатсеварлик инсонийликнинг энг бебаҳо жиҳати. Яқинда муборак саксон ёшни қаршилаган, қарийб 28 йил ички ишлар органларида самарали хизмат қилган истеъфодаги майор Шодиқул Нуриддинов ҳам ана шундай инсонлардан бири, десак, асло муболаға эмас.

У ички ишлар органларидағи илк хизмат фаолиятини 1967 йилда Тошкент ўрта-маҳсус милиция мактаби тингловчилари сафида бошлаган. 1969 йилда ўқишини тамомлаб, паспорт бўлинмаси инспектори сифатида ишлаётib, соҳага оид билимларини янада бойитиш мақсадида Тошкент олий милиция мактабини сиртдан тамомлаган. Кейинчилик Жомбой, Нарпай, Самарқанд тумани ИИБ ЙХХБ бошлиғи, вилоят ИИБ ЙХХБ ЙПХ батальони командирининг ўринbosари сифатида самарали хизмат қилиб, 1995 йилда иззат-икром билан пенсияга чиқкан.

Пенсияга чиққач, нотариал идорада фаолиятини давом эттирган очиқкўнгил, камтар ва жамоат ишларida фаол Шодиқул aka кўпчиликнинг таклифига «йўқ», дәя олмай, Самарқанд туманидаги



Хўжа Аҳрор Вали номидаги маҳаллада раисликни ҳам зиммасига олади. Оқсоқол сифатида кўпчиликнинг бошини бир жойга қовуштириб, келишиб, кенгашиб, ҳудудда қатор хайрли ишларга бosh бўлади. Жумладан, ҳашар йўли билан катта чойхона

қурдиради. Бугун ушбу шинам манзил маҳалла ахлининг хизматида.

– Кексайган сари киши босиб ўтган умр йўлига тез-тез назар ташлайдиган бўлиб қоларкан, – дейди фахрий. – Мен ҳам бугун ёшлик завқи, шавқига тўла

ички ишлар органларидағи хизмат йилларимни соғинч билан ёдга оламан. Шогирдлари майор йўқлаб туришади. Улар билан тизимдаги янгиликлар, шарт-шароитлар ҳақида сұхбатлашаман. Тўғриси, уларга ҳавасим келади.

Шодиқул Нуриддиновнинг дилидаги шукроналик унинг ибратли хизмати, баҳтли ҳаёти билан бир бутун. Нега, дейсизми, чунки айни пайтда ундан соҳа сирларини ўрганган шогирдларидан полковник Зокиржон Қаюмов, подполковник Равшан Тошмуродов ва Зифар Насриддинов устозига муносаб издош бўлиб меҳнат қилишишмоқда. Рафиқаси билан тарбиялаган қизлари Заринахон, Зилолаҳон, Зироатхонлар ҳам ҳаётда ўз ўрнини топган. Энг муҳими, отаҳон ўн невара, тўрт эваранинг севимли бобоси.

Йиллар худди сой суви каби оқиб ўтаверади. Инсон улғаяди, юз-кўзига кексалик файзи сингиб, соchlарига оқ оралайди. Қаҳрамонимиз сингари одамлар эса, ўзининг ҳалоллиги, тўғрилиги, самимияти ва атрофдагиларга яхшилик қилишдан ҳузур топиши билан ҳамиша ҳаммага ўrnak бўлади.

**Гулноза  
ТУРҒУНБОЕВА,  
ӯз мухбири  
Самарқанд вилояти.**

### ИИВ таълим мусассасаларида

## БЎЛАЖАК ИНСПЕКТОРЛАР БИЛАН УЧРАШУВ



**ИИВ Академиясида вазирлик ЖХД Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси хизмати ташаббуси билан ҳуқуқбузарликлар профилактикаси фаолияти кафедраси профессор-ўқитувчилари ҳамда битирувчи курсантлар иштирокида тадбир ташкил этилди. Унда Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси депутати Мухтабар Ҳусанова ҳамда ИИВ ЖХД Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси хизмати бошлиғи, полковник Бахтиёр Бердиалиевлар қатнашди.**

Дастлаб депутат М.Ҳусанова Қонунчилик палатасида қонунлар муҳокама жараёни, қонунчиликдаги янгиликлар ҳақида

гапириб ўтди. Шундан сўнг, полковник Б.Бердиалиев ҳам сўзга чиқиб, ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўлинмалари



борасида амалга оширилаётган ишлар тўғрисида тўхталди.

Тадбир давомида курсантлар ўзларини қизиқтирган саволлар билан мурожаат этишди. Уларга мутасаддилар томонидан атрофлича жавоб қайтарилди.

Шунингдек, тадбирда ўқиш давомида ўзининг билими ва тартиб-интизоми билан ўrnak кўрсатган 6 нафар курсантга совғалар ва уларнинг ота-оналарига миннатдорлик хатлари топширилди.

**Ўз мухбири  
имиз.**

томонидан криминоген вазият барқарорлигини таъминлаш бўйича комплекс ташкилий ва профилактик чора-тадбирлар

По словам начальника районного отдела внутренних дел подполковника Уктама Халикова, работа не останавливается ни на секунду. Оперативно-дежурная служба, уголовный розыск, экспертная группа... Все отделения взаимосвязаны, как части хорошо отлаженного механизма. Звонок в дежурную часть, оперативный выезд группы на место происшествия, слаженная работа и, как итог, – раскрытое преступление.

За восемь месяцев текущего года в районе произошло 218 преступлений, при этом количество тяжких преступлений снизилось на 25,9 процента. Уменьшились и показатели правонарушений среди женщин. Если в минувшем году было зафиксировано 44 преступления с их участием, то в этом году показатель соста-

## О ВАЖНОМ И АКТУАЛЬНОМ

**ОВД Джамбайского района был основан в конце 1970-х годов прошлого столетия. Об истории его становления и развитии, сотрудниках и ветеранах службы рассказывают экспонаты и документы в оборудованной недавно комнате духовности и просветительства. Здесь собраны многочисленные дипломы, сертификаты, фотографии, кубки и медали, повествующие о достижениях былых лет.**

вил – 26 случаев. На треть сократилась и преступность среди несовершеннолетних.

О безопасности региона можно судить по классификации уровней преступности. В Джамбайском районе насчитывается 38 махаллей, из них шесть занесены в «красную», 15 – в «желтую» и 17 – в «зеленую» зоны.

С начала года инспекторы профилактики зафиксировали около 4 900 административных правонарушений. На местах раскрыты десять преступлений, 12 подростков были на-



**На снимке:** инспекторы-психологи по вопросам несовершеннолетних группы по работе с молодежью и несовершеннолетними ОПП СОБ ОВД Джамбайского района лейтенанты Р. Жуманов, Ж. Асатуллаев, Ф. Махрамов и старший лейтенант У. Файзуллаев.



**На снимке:** следователь СО при ОВД Джамбайского района лейтенант Ф. Мирзакулов.

правлены в центры социально-правовой помощи несовершеннолетним.

Недавно в махалле Сухмон произошло пять преступлений, все из них связаны с кражей крышек от колодцев. При проведении расследования выяснилось, что воровством занимались двое молодых парней. По ночам они грузили крышки в автомобиль «Дамас» с целью дальнейшей продажи.

– В районе лидируют случаи мошенничества и вымогательства, – продолжает диалог Уктам Салимович. – На днях мы задержали

помощника хокима района, который требовал у жителя махалли Тут 20 тысяч долларов США за содействие в приобретении земельного участка. Сделка не состоялась, вымогатель был разоблачен во время получения взятки и понес за содеянное заслуженное наказание.

Еще один случай, связанный с вымогательством. 35-летняя жительница района знакомилась с мужчинами в интернете, а при встрече вымогала у них деньги за нераспространение интимных фотографий. Она также приглашала муж-

чин к себе домой. Только вот стоило гостю раздеться, как в дом врывались напарники обманщицы, избивали и вымогали у него деньги «за молчание». Все эти годы «бизнес» процветал, до тех пор, пока один из потерпевших не обратился с заявлением о вымогательстве трех тысяч долларов США. В ходе рейда преступная группировка была разоблачена. «Бизнес-леди» и ее подельники отправились за решетку.

**Замира БАЛТАЕВА,**  
соб. корр.

■ Республика Каракалпакстан

## НЕ СТОИТ ПРОВОЦИРОВАТЬ АВТОУГОНЩИКОВ

**Житель Бухары Али Жуманазаров по коммерческим делам приехал в Нукус. Решив вопросы с товаром, вместе с друзьями зашел в кафе обмыть сделку. После застолья его потянуло на «подвиги».**

Прогуливаясь в поисках приключений возле торгового комплекса «Дербент жол» он увидел незапертую автомашину с ключами в замке зажигания. Недолго думая, Али завел «Нексию-2» и попытался уехать. Но тут появился владелец транспортного средства, который успел запрыгнуть в машину и пресечь действия злоумышленника.

Точно также Самат Алауддинов после обильной трапезы и употребления горячительных напитков покинул свадьбу во дворце торжеств в Нукусе, дабы подышать

воздухом. Тут на «Кобальте» подъехал его знакомый Фархад. В спешке оставив машину, вместе с другими гостями он направился внутрь дворца торжеств. Воспользовавшись этим, Самат сел за руль и был таков. Но далеко не уехал. Не справившись с управлением, угонщик врезался в движущуюся впереди машину.

Важно отметить, что по данным специалистов, алкоголь на 20-30 процентов снижает зрительные способности человека, задерживает реакцию на две минуты.



– За угон автотранспортного средства предусмотрена ответственность по ст. 267 Уголовного кодекса. Но это не останавливает злоумышленников, – говорит инспектор УБДД СОБ МВД Республики Каракалпакстан лейтенант Самендер Каипов. – Статистика свидетельствует о росте подобных преступлений. Если в прошлом году в регионе было зафиксировано восемь краж автотранспорта, то за минувший период нынешнего года совершено уже 12 угонов. В большинстве случаев преступников провоцируют сами владельцы, оставляя транспортные средства открытыми.

**Азамат ПИРНИЯЗОВ,**  
соб. корр.



# SIZGA TA'ZIM, AZIZ USTOZLAR!

**Hayotda kimdir biror kishiga yordam bersa, hojatini chiqarsa yoki biron ta'lim bergan ota-onangga, ta'lim bergan ustozingga rahmat!** Naqadar ulug' e'tirof. Inson birligini xayrli ishi evaziga nafaqat ota-onasi, balki ustozlariha ham rahmat olib kelyapti. Ularni ko'klarga ko'taryapti.

Yangi O'zbekistonda o'qituvchi va murabbiylarga bo'lgan e'tibor davlat miqyosidagi ustuvor masala darajasiaga chiqdi. Ularni turli ishlarga majburlash qat'iy taqiqlandi. Pedagog xodimning kasbiy faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish yoki o'z xizmat vazifalarini bajarishiga to'sqinlik qiladiganlar jarima solish jazosi bilan siylanadigan bo'ldi. Xuddi shunday huquqbuzarliklar ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etiladigan bo'lsa, jarima miqdori oshadigan, shunday huquqbuzarlik uchun mansabdor shaxslar hatto ma'muriy qamoqqa olinadigan bo'ldi. Soha vakillarining sharafla va mas'uliyatlari xizmatini rag'batlantirishga ham alohida e'tibor qaratilib, pedagog xodimlarning ish haqi

yapti. Bundan tashqari, o'ziga ishongan, sohaning haqiqiy fidoyisi bo'lgan fan o'qituvchilari uch yilda bir marta sertifikat olish uchun imtihon topshirib, qo'shimcha ustama olishga muvaffaq bo'lishyapti. Asosiyasi, bu kabi xayrli ishlardan endilikda o'quv yurtini bir amallab bitirib olgan, diplom uchun «o'qigan» shaxslarning maktablarda qur tashlab olishiga chek qo'yemoqda. Bilimi bo'lmagan, nomiga kelib-ketayotganlar o'z-o'zidan maktablarni tark etyapti.

Pedagog avvalo tarbiyachi. U yurish-turishida, xatti-harakatida, barcha jihatlari bilan boshqalarga o'rnak bo'lishi lozim. Mavlono Jaloliddin Rumiying bir gapi bor: «Nasihat qiladigan inson emas, o'rnak bo'ladigan inson bo'!» Haqiqiy ustoz xulqi eng yomon bolani ham to'g'ri



lanadi» degan ezgu g'oya asosida sohada katta ishlardan amalga oshirilmoqda. Zamonaliv maktablar barpo etildi. Prezident maktablari, ijod maktablari hayotimizga kirib keldi, ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'i kengaytirildi. Yangi darsliklar va o'quv qo'llanmalari yaratildi.

ishlash imkoniyatini yaratib berganimiz muhim ahamiyatiga ega bo'ldi.

Chunki o'qituvchiga e'tibor – bu avvalo farzandlarimizga, ularning ta'lim-tarbiyasiga e'tibor, degani. O'qituvchining obro'si oshsa, maktabning obro'si oshadi, ilmnning, ta'lim-tarbiyaning qadri ko'tariladi. Shu sababli o'qituvchi va o'quvchilar uchun sharoitlarni yaxshilash, ta'lim sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratayapmiz».

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan farmoni bilan tasdiqlangan «O'zbekiston – 2030» strategiyasida ham pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilim va malakasini xalqaro standartlarga muvoqiflashtirish masalasiga ustuvorlik berilgan.**

Jumladan, mazkur hujjatga ko'ra, kelgusida 1000 nafr tarbiyachi va o'qituvchini xorijiy mamlakatlarga malaqa oshirish va stajirovkaga yuborish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumiy o'rta ta'lim muassasalarini pedagog xodimlarning o'rtacha ish haqini 2 barobarga oshirish, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarni oliy ma'lumotli pedagog kadrlar bilan to'liq ta'minlash asosiy vazifa sifatida belgilangan.

Shuni alohida qayd etish kerakki, ta'lim sohasini rivoj-

lantirish, o'qituvchilar obro'sini ko'tarish borasida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar o'zining ijobjiy natijasini ham bermoqda. Yuzlab o'quvchilar turli fan olimpiadalarida muvaffaqiyatli qatnashib, sovrindor bo'lishyapti. E'tiborlisi, bu jarayonda shogirdlariga bilim bergan, ilm cho'qqisiga yetaklagan ustozlar ham munosib e'tirof etilyapti. Yaqinda poytaxtimizda 2022/2023-o'quv yili davomida xalqaro hamda mintaqaviy fan olimpiadalarida g'olib bo'lgan o'quvchilar va ularning ustozlari munosib taqdirlangan ham fikrimizni tasdiqlaydi.

**Marosimda 65 nafr sovrindor o'quvchi va ularga ta'lim bergan o'qituvchilarga bir martalik pul mukofotlari, qimmatba-ho sovg'alar topshirildi. Xususan, nufuzli xalqaro olimpiadalarda g'oliblikni qo'lga kiritgan yoshlar 165 million so'mlik, o'qituvchilar esa 148 million 500 ming so'mlik pul mukofotlari bilan taqdirlandi. Bu maktab ta'limiga, ustozlarga berilayotgan e'tibor natijasidir.**

Hayotimizni ilmsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ilma, ta'limga katta e'tibor bergan davlat taraqqiyotga yuz tutadi. Ta'limni esa ustozlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Zero, o'qituvchi va ustozlar e'zoz topgan jamiyatda rivojlanish, farovonlik bo'ladi.

**Foziljon MAMASHARIPOV,  
o'z muxbirimiz.**



bosqichma-bosqich oshirib borilmoxda.

Shunga mos ravishda pedagoglarning mas'uliyatini oshirish, kasbiy bilim va salohiyatini yuksaltirishga katta urg'u berilyapti. Ma'lum vaqt oralig'ida attestatsiyadan o'tkazilib, toifa olishning yo'lgan qo'yilgani o'qituvchilarning sarasini sarakka, puchagini puchakka chiqar-

yo'lgan solib, uning hech kim payqamagan iqtidorini ko'ra oladi. Chinakam ustoz turli fe'l-atvordagi bolalarni bir maqsad sari yetaklashga qodir. U o'z mehnati natijalarini shogirdlarining yutuqlarida, muvaffaqiyatlarida ko'radi. Bu uning uchun eng katta baxtdir.

Ta'kidlash joiz, so'nggi yillarda «Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan bosh-

Yaqinda maktab ta'limidagi ustuvor vazifalar yuzasidan bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida Yurtboshimiz bir gapni alohida ta'kidladilar: «Eng muhimi, maktablarimizda yangicha ruh, mazmun va muhit paydo bo'ldi. Bunda, hech shubhasiz, bolalar qalbining me'mori, muhandisi bo'lgan hurmatli o'qituvchi va murabbiylar uchun erkin



Хафта қаҳрамони

## ЖАБРЛАНУВЧИ ҚУТҚАРИБ ҚОЛИНДИ

Шу йилнинг 17 сентябрь куни «Зартепа» ҳамда «Сурхон» темирйўл бекатлари оралиғида жойлашган қўриқланмайдиган темирйўл кесишмасида поезд ва автомашина тўқнашуви содир бўлди.

Фуқаро А.Ў. бошқарувидаги «Нексия» русумли автомашина темирйўл кесишмасидан ўтаётган пайтда «Сариосиё – Термиз» шаҳарларо йўловчи поездни автоуловни уриб кетади. Натижада



шикастланган автомашинадаги газ баллонидан метан гази чиқа бошлади.

ИИВ Транспорт ва туризм обьектларида хавфсизликни таъминлаш департаменти йўловчи поездларни кузатиш батальони 2-гурӯҳ сафдор ходими, сержант Файрат Сайдуллаев ана шундай қалтис вазиятда ўзини йўқотиб қўймай, ён атроф даги фуқароларни ёрдам беришга чақириб, ҳеч

иккиласдан, машина ичидаги беҳуш ётган ҳайдовчини қутқаришга шошилди. Уни автоуловнинг синган орқа ойнасидан чиқариб олиб, хавфсиз жойга ўтказди. Кейин жабрланувчини йўловчи машинада шифохонага олиб борди.

Айтиш мумкинки, ходимана шундай мардонавор ҳаракатлари билан ҳайдовчининг ҳаётини сақлаб колди.

Айни пайтда жабрланувчи шифокорлар назоратида.

**С.РЎЗИҚУЛОВ,**

катта сержант.

Сурхондарё вилояти.



Соҳа фидойилари

## ИШОНЧ ВА УМИД СЎНМАСИН

– дейди подполковник Дилшоджон Қурбонов

Ички ишлар органларида ота касбини давом эттириб баҳт топганлар талайгина. Аксарият ҳолларда бу соҳанинг масъулиятию машаққатини ўз кўзи билан кўриб, ҳис этиб улғайган фарзандлар ота изидан боришини юксак шараф деб билади.

ИИВ ҳузуридаги ЖИЭД Махсус ҳисоб бошқармаси бошлиғи, подполковник Дилшоджон Қурбонов ҳам бир пайтлар ана шундай орзу-истакларни қилган эди. Отаси Маҳамадали aka Фарғона шаҳар ИИБда хизмат қилар, баъзан уйга ярим тунда қайтса, баъзан бир неча кунлаб хизматда қолиб кетарди. Шундай бўлса-да, фарзандлари тарбиясини асло бўшаштирмади, уларга ҳалолликни, жасурликни ўргатди.

Ёши улғайгани сари Дилшоджоннинг қалбida куртак ёзган орзу бўй кўрсата бошлади. Мактабда аъло баҳоларга ўқиб, спорт билан шуғулланди. Шу орада акаси ҳам ички ишлар органларида хизмат қилишни бошлади. Бу эса унга янада кўпроқ файрат ва шиҷоат бағишилади. Отаси ва акасига ҳавас қилиб, ИИВ Академиясига ҳужжат топширган Дилшоджон синовлардан муваффақиятли ўтиб, курсантлар сафидан жой олди. Бу хабарни эшитганда оиласнинг қувончи чексиз бўлди.

Лавҳамиз қаҳрамони учун курсантлик йиллари ўзига хос синов майдони бўлиш билан бирга, ўз устида яна ҳам кўпроқ ишлаш, жисмонан ва ақлан чиникиш даври бўлди. Таълим даргоҳида ўтказилган маънавий-маърифий тадбирлар, танлов ва мусобақаларда фаол қатнашиб, доимо илфорлар сафидан жой олди.

Соҳадаги хизмат фоалиятини 2007 йилда Фарғона шаҳар ИИБда терговчиликдан бошлаб, кейинчалик Фарғона вилояти ИИБ, Ички ишлар вазирлигига терговчи, катта терговчи, ўта муҳим ишлар бўйича терговчи каби лавозимларда фоалият кўрсатди. Бир муддат Самарқанд вилояти ИИБ ҳузуридаги Тергов бошқармасида раҳбарлик лавозимларида хизмат қилди. Вазирлик ҳузуридаги ЖИЭД Юридик бўлим бошлиғи лавозимида ҳам самарали хизмат қилиб, тизим фоалиятига оид ҳуқуқий хужжатларни ишлаб чиқиши,

амалиётга татбиқ этилишини назорат қилишда ҳам фаол иштирок этди.

Унинг масъулиятини ҳис қилиши, фуқаролар ва қўл остидаги ходимлар билан хушмуомалиги эътирофга сазовор бўлди. Шундан сўнг ЖИЭД Махсус ҳисоб

ларни амалга ошириш учун Департамент ва Нотариал палата ўртасида меморандум имзоланган. Нотариал идора вакилларининг мазкур жараёнда иштирок этишини қонун доирасида ташкил этиш, бошқа ҳуқуқий масалаларда ёрдам бериш

– Хизмат фоалиятим асосан фуқароларнинг мурожатлари билан боғлиқ, – дейди Дилшоджон Қурбонов.

– Аввало умид ва ишонч билан мурожаат қилган инсонни ноумид қайтаришнинг ўзи ёмон ҳолат. Кимнингдир қалбини вайрон қилиш на

одамийликка тўғри келади, на ички ишлар органи ходимининг вазифасига. Шундай экан, тергов соҳасида бўладими ёки жазони ижро этиш тизимида бўладими, ҳар бир мурожаат ортида инсон тақдиди турганини ҳисобга оламан. Кўлимдан келган ҳуқуқий ёрдам, маслаҳатларимни бераман. Кўмагимиз билан муаммоси ҳал бўлиб, ҳаёт ижобий томонга ўзгариб кетганлар баъзан келиб ёки қўнғироқ қилиб миннатдорлик билдиради. Бу биз учун катта мукофот.

Тизимда Дилшоджон Қурбонов сингари фидойи ва жонкуяр ходимлар талайгина. Бу каби ўғлонлар доимо бошқаларга ўрнак бўлиб, хизмат самарадорлиги ошишига, фуқаролар ишончини оқлашга камарбаста бўлиб келишишмоқда.

**Фозилжон  
МАМАШАРИПОВ,  
ўз мухбиримиз.**



бошлиғи лавозимига тайинланди.

Бугунги кунда жазони ижро этиш муассасалари, тергов ҳибсоналарида сақланаётган маҳкум ва маҳбусларнинг ҳуқуқларини таъминлашга алоҳида эътибор қаратилияпти. Улар билан муассаса ҳудудида турли нотариал ҳаракат-

каби ишларда бошқарма бошлиғи, подполковник Дилшоджон Қурбонов ҳеч бир жиҳатни эътибордан четда қолдирмайди. Шу боис яқинда у Ўзбекистон Республикаси Нотариал палатаси томонидан «Нотариат соҳасига қўшган ҳиссаси учун» кўкрак нишони билан тақдирланди.



**Новый Узбекистан – новые органы внутренних дел**

## СОВРЕМЕННЫЙ МЕДИА-ЦЕНТР

В Ферганской области в ближайшее время выйдет в эфир новая телевизионная программа «Вазият-24», рассказывающая о деятельности органов внутренних дел, областной прокуратуры, управлений Национальной гвардии, по чрезвычайным ситуациям и налоговых органов.




Это стало возможным благодаря созданному при областном УВД медиа-центру, открытие которого состоялось на днях.

В церемонии ввода данного объекта в эксплуатацию приняли участие хоким Ферганской области Хайрулло Бозоров, начальник областного УВД генерал-майор Азизбек Икрамов, руководитель пресс-службы МВД полковник Шохрух Гиясов, ветераны сферы, представители средств массовой информации.

Центр оснащен новейшими техническими средствами, съемочными, звукозаписывающими камерами, комплектом телесуфлерного оборудования, компьютерами для монтажа с высоким разрешением, видеопередатчиком, крупногабаритным монитором. В арсенале сотрудников центра четыре комплекта компьютерных моноблоков, сервер для базы данных, цветной принтер, про-

екторы, другие виды информационно-коммуникационных технологий.

– Прежде медиа-продукцию готовили на базе областной телерадиокомпании. Хотя было налажено тесное сотрудничество с журналистами в этом деле, иногда происходили накладки из-за их загружен-



ности, – говорит руководитель пресс-службы областного УВД капитан Исмоилjon Шарипов. – Теперь можем на базе медиа-центра проводить беседы за «круглым столом», репортажи, интервью, записывать обращения к населению... Повысится оперативность работы. Планируем выпускать телевизионную программу «Вазият-24» о деятельности правоохранительных органов региона.

**Абдуносит СИДИКОВ,**  
соб. корр.



■ Бухоро вилояти

## АЁЛЛАР ДАРДИГА МАЛҲАМ

Бухоро шаҳар 2-сонли ИИБ ҲПБ Хотин-қизлар масалалари бўйича катта инспектори, майор Мехринисо Якубова шу лавозимда хизмат қилаётганидан бўён, юзлаб низоли ва ажрим ёқасига келиб қолган оиласларни яраштириб, савобли ишлар қилиб келяпти. Жорий йилнинг ўтган даврида ҳам унинг ташаббуси билан 230 нафар хотин-қизга ҳимоя ордери берилди, 120 та ажрим ёқасидаги оиласлар яраштирилди. Бундан ташқари, 41 ҳолатда аёлларга алимент пуллариниundiриб беришга ҳам ишчи гурӯх билан биргалиқда бош-қош бўлди.

– Ёшларни ёш десак, баъзан ёши бир жойга бориб қолганлар орасида ҳам ажрашишга ошиқаётганлар учраб қоляпти, – дейди майор М.Якубова. – Бир оила вакиллари беш йилдан бери уй-жой масаласи бўйича жанжаллашгани жанжаллашган. Аёл олтмишдан ошган, эр ҳам етмишларга бориб қолган. Шаҳар ҳокими ўринбосари билан ҳамкорликда аёлни аёллар дафтарида киритдик. Ке-

ракли тавсиялар, ҳуқуқий маслаҳатлар берилди. Хона давлат томонидан таъмирланди. Кўз тегмасин, ҳозир чолу кампир ярашиб, бино-йидек яшаяпти.

Бу каби келишмовчилкларга барҳам бериш, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишда аёллар бандлигини таъминлаш, ишсиз ва касбга эга бўлмаган аёлларни касбга ўқитиш яхши самара беришини майор М.Якубова яхши



англайди. Шунинг учун бу йўналишда кенг кўламли тадбирлар, манзилли ишлар амалга оширилмоқда. Айниқса, оғир ижтимоий аҳволга тушиб қолган хотин-қизларга психологик ёрдам кўрсатишга катта аҳамият бермоқда. Шу

мақсадда Бухоро давлат университетининг тажрибали психологлари жалб қилиниб, сұхбатлар ташкил этиляпти.

Мехринисо хизматда намунали ходима бўлса, турмушда яхши оила бекаси. Турмуш ўртоғи Ражаб Fafu-

ров тадбиркор. У ҳамиша аёlinи қўллаб-қувватлади. Улар Жаҳонгир ва Мехдиали исмли ўғилларини жамиятга нафи тегадиган инсон қилиб тарбиялашмоқда.

**Мирзоқул АҲАДОВ,**  
ўз мухбиримиз.

■ Қорақалпоғистон Республикаси

## ҚУЛАЙ ШАРОИТ ХИЗМАТГА РАҒБАТ

Жамоат тартибини сақлаш ва хавфсизликни таъминлаш йўналишларида амалга оширилаётган ижбий ва хайрли ишлар фуқароларга бир мунча қулийлик яратипти. Ҳусусан, Қорақалпоғистон Республикаси Нукус шаҳрида жойлашган 2-сонли Терғов ҳибсхонасида нафақат фуқаролар, балки бу ерда хизмат қилаётган ходимларга ҳам қулий шарт-шароит яратилиши, уларнинг ижтимоий ҳимоя қилинаётгани хизмат самарадорлигига ўзининг ижбий таъсирини кўрсатмасдан қолмаяпти.

Ўтган даврда ҳибсхона ташқи ва ички худудларида қайта таъмирлаш ишлари олиб борилди. Фуқаролар учун кутиш хонаси, йўқловларни қабул қилиш ва фуқароларни қабул қилиш бинолари қуриб битказилди.

Бундан ташқари, ходимлар дам олиш бинолари қайта реконструкция қилиниб, барча зарур шароитлар яратилди. Шу билан бирга, ходимларнинг жисмоний ва жанговар тайёргарлигини ошириш, спорт билан шуғулланиши учун спорт зал фойдаланишга топширилди.

– Ҳар қандай соҳада тартиб-интизомга риоя қилиниши муҳим жиҳат ҳисобланади. Шундан келиб чиқсан ҳолда шахсий таркиб ўртасида хизмат интизомини кучайтириш масалалари қаттиқ назоратга олинган. Хизмат олди йўриқномасида маҳсус контингентнинг қадр-қимматини камситмаслик, ҳар қандай ҳолатда қийноқча солиш, зўравонлик, бошқа файриинсоний хатти-ҳаракатларни содир этмаслик юзасидан профилактик тушунириш ишлари олиб борилади, – дейди Терғов ҳибсхонаси бошлигининг



конунчилиги бузилишининг олдини олиш, маҳсус контингент ҳақ-ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, ходимларнинг қонун талабларидан четга чиқмаслигини таъминлашга хизмат қилади.

Шу ўринда муассаса ходимларини ижтимоий қўллаб-қувватлаш борасидаги ишлар ҳам эътибор марказида эканлигини айтиб ўтиш жоиз. Жумладан, ички ишлар органлари ходимларини ижтимоий ҳимоя қилиш мақсадида 7 нафар ходимга ипотека шартлари асосида уй олиш учун бошланғич бадал пули тўлаб берилган бўлса, 4 нафар ходимга оиласи шароитдан келиб чиқсан ҳолда ёрдамлар кўрсатилди.

**Айдос  
ХУДАЙБЕРГЕНОВ,  
майор.**



маънавий-маърифий ишлар бўйича ўринбосари, майор Қабилбай Бекмуратов.

Ҳибсхонада маҳсус контингент учун Омбудсманга, прокурорга мурожаат қилиши учун мўлжалланган алоҳида қутилар ўрнатилган. Ушбу қутилар мазкур идораларнинг масъул ходими томонидан мұхрланаши ва очилади. Бу, ўз навбатида жиноят-ижроия



[www.postda.uz](http://www.postda.uz)



[t.me/postdarasmiy](https://t.me/postdarasmiy)



[www.facebook.com/postdauz](https://www.facebook.com/postdauz)



[www.instagram.com/postda\\_uz](https://www.instagram.com/postda_uz)



«Хавфсиз оила» тамойили – амалда

## МУАММОНИ «ХОНАДОНБАЙ» ЎРГАНИШ

Аёл – нозик хилқат. Шунчалик бардошлики, аксарияти оиласидаги муаммоларни бирорга айтишга истиҳола қилади. Миллатимизга хос андиша ва орият деган тушунчалар аёлни «уйингдаги гапни кўчага чиқарма» қабилида иш кўришга, синовли дамларда сабрли бўлишга ундаиди.

Бундай йўл тутиш ўзини оқлаши ҳам мумкин. Аммо сабрнинг ҳам чегараси бўлади. Шундай вазиятлар ва муаммолар бўладики, уларга бугун барҳам берилмаса, эртага кеч бўлиши, мусибатларга олиб бориши мумкин.

Жорий йилнинг 27–28 июль кунлари Юртбошимиз Фарғона вилоятига ташрифи давомида вилоятдаги тезкор-криминонг вазият ҳақида тўхталиб, жиноятларни «маҳаллабай» ва «хонадонбай» жиловлаш бора-сидаги тадбирларни янада кучайтириш, профилактик ишлар таъсирчанлигини ошириш борасида топшириқлар берган эди. Шу асосда хотин-қизлар томонидан содир этилиши мумкин бўлган жиноятларнинг олдини олишга алоҳида эътибор қаратилиб, «хавфсиз оила» тамойили асосида «хонадонбай» иш услуби йўлга қўйилди.

Бунда хотин-қизлар масалалари бўйича катта инспекторларнинг маҳалла бешлиги билан ҳамкорлигига алоҳида эътибор қаратилиб, жиноят ва ҳукуқбузарлик содир этишга мойил ёки жабрланиш эҳтимоли юқори бўлган хотин-қизлар билан алоҳида, манзилли иш олиб борилмоқда.

Энди катта инспекторлар маҳалла бешлиги аъзолари билан ана шу тоифадаги аёллар яшайдиган хонадонларга қайта ва қайта кириб бормоқда. Ўрганишлар ҳам шунчаки қофоз қоралаш учун амалга оши-

рилаётгани йўқ. Ҳар бир аёл билан якка тартибда сухбатлашилиб, муаммоси бор-йўқлиги аниқланяпти. Башарти, рўзфорида, эру хотин ёки қайнона-келин муносабатларида келишмовчилик ёки бирор муаммо бўлса, шу ернинг ўзида ҳал этиш чоралари кўриляпти.

Жорий йилнинг ўтган даврида 15 минг 502 та хонадон «хонадонбай» усулида ўрганилди.

Натижада 708 нафар ишсиз хотин-қизлар доимий ишга жойлаштирилди. 1001 нафар аёлга моддий ва ижтимоий ёрдам ажратилди, 375 нафарига тиббий ёрдам кўрсатилиб, 345 нафар хотин-қизнинг шахсини тасдиқловчи ҳужжатлари қайта тикланди. 233 нафарига тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланиш учун яқиндан кўмак берилди. 123 нафар қиз таълим



Бу жараёнда ушбу хонадонларда истиқомат қилаётган 15 минг 435 нафар хотин-қиз билан сухбат ўtkазилиб, аниқланган 1669 та муаммонинг 1286 таси ҳал этилди. 383 таси бўйича тегишли соҳаларга ҳал этиш учун тақдимнома ҳамда алоқа хатлари юборилди.

муассасаларига қайтарилди. 1073 та низоли оиланинг муаммолари маҳалланинг ўзида кўриб чиқилиб, 483 тасидаги нотинчликка барҳам берилди. Эътиборлиси, 246 та оила сақлаб қолинди.

Тазийик ва зўравонликдан жабр кўрган хотин-қизларни ҳимоя



Дилшода ЎРИНОВА,  
Фарғона вилояти  
ИИБ ҲПБ бошлиғининг  
хотин-қизлар масалалари  
бўйича ўринбосари,  
майор.

қилиш мақсадида 1283 нафар хотин-қизга ҳимоя ордери расмийлаштирилди. Ўрганишлардан маълум бўлдики, тазийик ва зўравонликка учраган аёлларнинг аксарияти 31 ёшдан ошган хотин-қизлардир. Энг ачинарлиси, аёлларнинг 1007 нафари эри ёки бошқа яқинлари томонидан тазийқа учраган. Аёлларга зўравонлик қиласидаги эркакларнинг аксарияти қисми эса ҳеч қаерда ишламаслиги, спиртли ичимликка ружу қўйгани ва ҳукуқий билими етарли эмаслиги маълум бўлди.

Дастлаб ҳукуқбузарлик содир этиш эҳтимоли бор, ишламайдиган ёки доимий иш билан банд бўлмаган, профилактик ҳисобда турган хотин-қизларнинг иқтисодий, ижтимоий-маишӣ муаммолари қайта хатловдан ўтказилмоқда. Бундан ташқари, «Аёллар дафтари» тизими орқали ижтимоий ёрдамнинг ўз эгаларига ўз вақтида ва манзилли етиб бориши ҳам қатъий назоратга олинди.

Оила-турмуш доирасидаги жиноятларнинг бараваёт олдини олиш мақсадида нотинч ва низоли оилалар, профилактик ва пробация ҳисобида турган хотин-қизлар билан индивидуал ишлаш ҳамда оилавий низоларни медиация усуслари орқали бартараф этиш тизими янада кучайтирилмоқда. Бу тоифадаги аёлларга «Оқила аёллар» ҳаракати аъзолари, кўчабошилар, «Оилавий қадриятларни мустаҳкамлаш» комиссияси аъзолари ва кайвони онахонлардан мураббийлар бириткириш амалиёти жорий этиляпти.





# ПОКЛОН ВАМ, ДОРОГИЕ НАСТАВНИКИ!

**Педагог – самая благородная профессия.**  
**Учителя дают нам бесценные знания, помогают развиваться, познавать премудрости жизни.**  
**В трудных ситуациях помогают, дают советы, способствующие преодолению любых преград.**

Обретя профессию, служа стране, в первую очередь, мы благодарим педагогов. День учителей и наставников широко отмечается в нашей стране с 1 октября 1997 года. Это является результатом высокого внимания, уделяемого на государственном уровне представителям данной профессии, воспитывающим молодое поколение, которое определяет будущее страны и общества.

Неоценима роль учителей и наставников в развитии молодых людей как гармоничных личностей. Их долгосрочные усилия по обучению основам науки и современным профессиям, воспитанию молодых людей в духе любви и преданности Родине, формированию гармонично развитого и физически крепкого поколения, его активного участия в общественной жизни, приносят весомые результаты. Поэтому повышение социального статуса учителей и наставников является важной основой для развития общества.

В последние годы система образования нашей страны кардинально реформирована. Подготовка высококвалифицированных кадров определена как один из приоритетов государственной политики. За короткий промежуток времени созданы новые дошкольные образовательные организации, общеобразовательные школы, высшие учебные заведения, отремонтированы ранее существующие. Также учебные заведения оснащены современным компьютерным оборудованием. В образовательные процессы начали внедряться передовые

педагогические и информационные технологии. Разработаны и внедрены в практику электронные учебники, видео- и аудиоуроки, интерактивные и виртуальные уроки, обучающие игры.

Закон Республики Узбекистан «Об образовании», принятый в новой редакции в 2020 году, предусматривает отдельную главу для правового статуса педагогических работников, устанавливает гарантии их социальной поддержки, повышения репутации профессиональной деятельности, реализации их прав и законных интересов. Также законом признается тот факт, что права, честь, достоинство и репутация педагогических работников находятся под защитой государства и не допускается вмешательство в их профессиональную деятель-



указывается, что в Узбекистане труд учителя признается основой развития общества и государства, формирования и воспитания здорового, гармонично развитого поколения, сохранения и приумножения духовного и культурного потенциала народа. В ходе реформирования системы образования акцентировано внимание

а профессию учителя сделать одной из самых авторитетных и уважаемых в обществе, чтобы педагоги, в свою очередь, заботились об образовании и воспитании подрастающего поколения.

**Сегодня признание роли учителей и наставников отразилось и в Рамочной программе действий «Образование-2030», где подчеркивается, что они играют основополагающую роль в деле обеспечения справедливого и качественного образования. В рамках госпрограммы в Узбекистане до 2030 года планируется довести охват детей дошкольным образованием до 100 процентов.**

В последнее время в стране наблюдаются кардинальные изменения в формах и видах обучения, упор делается на непрерывную систему получения знаний, начиная от дошкольного и заканчивая послевузовским образованием.

Одной из важных задач в рамках реализации Стратегии развития Нового Узбекистана определено дальнейшее развитие системы образования. Главная цель – чтобы выпускник школы был личностью, обладающей креативным мышлением, широким мировоззрением и способностью самостоятельно принимать решения, владел современными навыками и информационными технологиями.

В настоящее время кардинально пересматриваются школьные программы, методики обучения, содержание учебников. Приоритетное значение имеет строительство школ во всех регионах, особенно в сельской местности, их обеспечение квалифицированными педагогическими кадрами.

**Соб. корр.**



ность, препятствование выполнению ими своих служебных обязанностей.

В статье 52 обновленной Конституции Республики Узбекистан

на укрепление статуса учителя как носителя не только знаний, но и приумножения духовного и культурного потенциала народа.



Еще в 2020 году глава государства подчеркнул, что будут ускорены реформы, направленные на улучшение качества школьного образования с созданием достойных условий для учителей. В том же году был принят Указ Президента «О мерах по развитию сфер образования и воспитания, и науки в новый период развития Узбекистана». Документом определена задача по повышению в обществе роли и авторитета учителей и наставников, их материальному стимулированию.

Введение поправок в новую редакцию Конституции служит основанием для проведения коренного реформирования системы непрерывного образования,



# ЯНГИХАЁТДА ЯНГИЧА ЁНДАШУВ

Пойтахтнинг Янгиҳаёт тумани ташкил этилганига эндиғина 3 йил тўлган бўлса-да, жадал суръатларда ривожланиб бораётган ҳудуд ҳи-собланади. Кундан-кунга янги-янги бинолар қад кўтариб, саноат корхоналари барпо этилмоқда. Аҳоли сони ҳам шунга мос равишда ўсиб бормоқда. Бу эса ҳудудда фаолият юритаётган ички ишлар органлари ходимларидан хизмат вазифасига янада масъулият билан ёндашишни талаб этяпти.

– Туман ҳудудида 9500 дан ортиқ ҳовли уйлар, 1000 га яқин кўп қаватли тураржойлар мавжуд, – дейди туман ИИОФМБ Ташкилий бўлим бошлиғи, подполковник Рустам Зайнутдинов. – Аҳолининг асосий қисми 3200 га яқин корхоналарда иш

*Янгиҳаёт тумани Олий Мажлис Қонунчиллик палатаси ва Сенатининг 2020 йил сентябрдаги тегишили қарорлари асосида, Тошкент шаҳрининг Сергели, Бектемир туманлари ва Тошкент вилояти-нинг Зангиста, Куйичирчиқ, Янгийўл ва Ўртачирчиқ туманлари ҳудудларидан ер ажратилиши ҳисобига ташкил этилган.*



билин банд. Жорий йилнинг 8 ойи мобайнида ўтган йилнинг шу даврига нисбатан жиноятчилик камайган бўлса-да, лекин бу бизни хотиржам бўлишимизга асос бўлолмайди. Жиноятчиликни янада камайтириш мақсадида тегишили режа ва дастурлар ишлаб чиқиб, бошқа идоралар билан ҳамкорликда фаолиятни янада кучайтирмоқдамиз.


Хусусан, ҳудудда криминоген вазиятни барқарорлаштириш мақсадида қаровсиз қолдирилган велосипед, болалар аравачаси ва бошқа буюмларни туман ИИОФМБ, ИИБларида вақтинча сақлаш

амалиёти жорий этилган. Ушбу буюмлар йўқолганилиги тўғрисида «102» хизматига хабар келиб тушганида, улар эгасига қайтарилиб, қайта қаровсиз қолдирмасликла-ри тўғрисида огоҳлантирилмоқда. Асосийси, шу амалиёт кўл келиб, охирги вақтларда юқоридаги каби буюмлар ўғирлиги бўйича ички ишлар органларига биронта ҳам хабар тушмади. Шунингдек, ўтган вақт давомида 500 нафардан ортиқ кўча ва жамоат жойларида спиртли ичимлик истеъмол қилиб юрган фуқаролар тиббий ёрдам кўрсатиш пунктига жойлаштирилиши натижасида кўплаб

ноҳуш ҳолатларнинг олди олинди.

– «Обод ва хавфсиз маҳалла» тамоилии асосида маҳаллалар «қизил», «сариқ» ва «яшил» тоифаларга ажратилиб, мос равишда профилактик чоралар белгиланмоқда, – дейди ИИОФМБ ХПБ бошлиғи, подполковник Алижон Қодиров. – Хусусан, «қизил»

навий масалалар бўйича раис ўринбосари Манзура Ҳайдарова ҳамда ҳудуддаги 525-сонли ИИО таянч пункти профилактика катта инспектори, лейтенант Содикжон Худойқулов ҳамкорлигига муайян



тоифага кирувчи «Тошкент» маҳалласини «сариқ» тоифага ўтказиш борасида маҳалла фуқаролар йиғини раиси Равиля Раҳмаева, хотин-қизлар ва ижтимоий-маъ-

ишлар амалга оширилмоқда. Бунинг учун мазкур маҳаллада туман ИИОФМБ раҳбарияти ва маҳалла бешлиги ҳамкорлигига йўл ҳаритаси ишлаб чиқилди. Жорий йилнинг ўтган даврида 5 та низоли оила яраширилди. Криминоген вазиятни юзага келтириши мумкин бўлган шахсларга маъмурий жазо чоралари кўлланилмоқда.

Бундан ташқари, аҳоли муаммоларини жойига чиқиб ўрганиш ва ҳал этиш мақсадида туман ИИОФМБ бошлиғи, 3-сектор раҳбари, подполковник Сарвар Жўраев маҳаллаларда сайёр қабуллар ўтказмоқда. Қабулларда ҳар бир мурожаатга индивидуал равишда ёндашилиб, фуқаролар муаммоларини ҳал этиш юзасидан тегишили ишлар амалга оширилмоқда.

**Сарвар СОБИРОВ,  
ӯз мухбири миз.**  
Тошкент шаҳри.



# ФАРОВОН КЕЛАЖАК ДАСТУРИ

Давлатимиз раҳбарининг жорий йил 11 сентябрдаги «Ўзбекистон – 2030» стратегияси тўғрисида ги фармони билан кейинги йилларда ортирилган тажриба ҳамда жамоатчилик муҳокамаси натижалари асосида ишлаб чиқилган «Ўзбекистон – 2030» стратегияси тасдиқланди. Унда ўз аксини топган инсонпарварлик сиёсати, «инсон қадри учун» тамойили ижроси йўлидаги дадил қадамлар, яқин келажакда амалга ошириладиган кенг кўламли ислоҳотлар, аниқ мақсад ва вазифалар халқимиз ҳаётига янгича мазмун баҳш этиши шубҳасиз.

Фармонда қайд этилганидек, «Ўзбекистон – 2030» стратегиясида қўйидаги асосий ғоялар акс эттирилган бўлиб, бу ҳар бир фуқарога ўз салоҳиятини ривожлантириш учун барча имкониятларни яратиш, соғлом, билимли ва маънавий баркамол авлодни тарбиялаш, глобал ишлаб чиқаришнинг муҳим бўғинига айланган кучли иқтисодиётни шакллантириш, адолат, қонун устуворлиги, хавфсизлик ва барқарорликни кафолатли таъминлашга хизмат қиласди:

- барқарор иқтисодий ўсиш орқали даромади ўртачадан юқори бўлган давлатлар қаторидан ўрин олиш;
- аҳоли талабларига ва халқаро стандартларга тўлиқ жавоб берадиган таълим, тиббиёт ва ижтимоий ҳимоя тизимини ташкил этиш;
- аҳоли учун қулай экологик шароитларни яратиш;
- халқ хизматидаги адолатли ва замонавий давлатни барпо этиш;

– мамлакат суверенитети ва хавфсизлигини кафолатли таъминлаш.

Стратегиянинг қонун устуворлигини таъминлаш, халқ хизматидаги давлат бошқарувини ташкил этиш йўналиши доирасида 2024 йил 1 январдан бошлаб йўл ҳаракати хавфсизлиги соҳасида давлат хизматларини кўрсатишда, шу жумладан, автомототранспорт воситаларини давлат рўйхатидан ўтказишда автомототранспорт воситасининг олди-сотди шартномалари ва бошқа нотариал тасдиқланган битимларни «Нотариус» автоматлаштирилган ахборот тизимидан олиш амалиёти йўлга қўйилади ва ариза берувчилардан мазкур ҳужжатларни талаб қилиш тақиқланади. Келгуси йил 1 мартаңдан эътиборан эса нотариал идорага келмасдан, шу жумладан, чет элдан туриб, мол-мулқдан фойдаланиш билан боғлиқ битимларни (мулк ҳуқуқини бошқа шахсга ўтказишдан ташқари) электрон



рақамли имзодан фойдаланган ҳолда видеоконференсалоқа орқали расмийлаштириш тартиби йўлга қўйилади. Буларнинг барчasi давлат хизматларини кўрсатишида аҳолига янада қулайлик яратади, ортиқча сансалорликларга барҳам беради.

Шунингдек, 2024 йил 1 январдан бошлаб босқичма-босқич барча шаҳар ва туманларда «Маҳалла бюджети» тизими жорий этилиши маҳалла институтини янада такомиллаштиради. Бунда туман ва шаҳар бюджетларига тушадиган солиқ тушумларининг бир қисми маҳаллаларнинг ижтимоий-иктисодий муаммоларини ҳал қилиш жамғармаларига йўналтирилади. «Ташаббусли бюджет» амалиётини ва маҳаллаларнинг молиявий мустақиллигини янада кенгайтириш мақсадида 2024 йилда жамоатчилик фикри асосида шакллантириладиган лойиҳаларни молиялаштириш учун давлат бюджетидан 10 трил-

лион сўм ажратилиб, шундан «Обод қишлоқ» ва «Обод маҳалла» дастурлари учун камида 4 триллион сўм маблағ йўналтирилади.

Бундан ташқари, 2024 йил якунига қадар қонунда белгилangan асосларда тезкор-қидирав ва тергов ҳаракатларига санкция бериш масаласини алоҳида судялар – тергов судялари томонидан кўриб чиқиши тартиби амалга татбиқ қилинади. Тадбиркорлик соҳасида жавобгарликни янада либераллаштириш мақсадида 2024 йил 1 январдан бошлаб биринчи марта жиноят содир этган шахсни, агар у суд маслаҳатхонага киргунига қадар солиқлар ва йигимлар, шу жумладан, пенялар ва бошқа молиявий санкциялар тарзида давлатга етказилган зарарнинг ўрнини тўлиқ қопласа, жавобгарликдан озод қилиш тартиби жорий этилади.

**Азизжон ФАЙЗИЕВ,  
майор.**



Профессионалы своего дела

## ВЫДЕРЖКА И ИНДИВИДУАЛЬНЫЙ ПОДХОД

**В соответствии с принципом «не народ служит государственным органам, а государственные органы должны служить народу» диалог с населением, решение волнующих граждан вопросов, стали основным критерием деятельности всех ветвей власти любого уровня.**

Устранение проблем, поднятых в обращениях физических и юридических лиц, – один из путей обеспечения внимания, оказания поддержки и помощи соотечественникам, чтобы они в полной мере ощущали на себе суть проводимых в стране масштабных преобразований.

Выполнение этой ответственной задачи в Гиждуванском РОВД Бухарской области доверено старшему инспектору группы по работе с обращениями Организационного отдела майору Хабибу Мардонову.

Х. Мардонов в коллективе пользуется заслуженным авторитетом. Его ценят за преданность долгу. Уважают и в качестве главы образцовой



семьи. Вместе с супругой Шахло Ризаевой они вырастили трех сыновей – Мардонбека, Мухаммадазиза и Мухаммадали, воспитав их достойными гражданами страны.

Ежедневно ему приходится сталкиваться с

непростыми ситуациями, вникать в запросы людей, находить оптимальные решения.

Высокий профессионализм, выдержка, индивидуальный подход, знание правовых основ, регулирующих прак-

тически каждую сферу деятельности, – качества, которыми обладает старший инспектор. Эти навыки Хабиб Мардонов перенял у своих наставников – майоров в отставке Бахтиёра Журавева и Вахоба Ражабова,

подполковника в отставке Тулкина Баротова. Хабиб и по сей день не теряет с ними связи, навещает старших коллег, советуется при необходимости. Ведь ничто так не помогает в работе, как опыт, проверенный практикой. В свою очередь, старается помочь молодым сотрудникам.

– Иногда люди обращаются в нерабочее время, приходят домой со своими проблемами, – говорит майор Х. Мардонов.

– Стараюсь выслушать и помочь по мере возможности. За минувшие месяцы нами зарегистрировано 1 039 обращений, поступивших от физических и юридических лиц, 983 из которых удовлетворены. Большинство вопросов касается семейных неурядиц и мошенничества.

**Мирзокул АХАДОВ.  
соб. корр.  
Бухарская область.**

## ■ Андиканская область

Улугнорский район – один из крупнейших районов Андиканской области, основанный в конце 1973 года. Это самый западный из районов области, лежащий на границе с Ферганской и Наманганской областями, в центре Ферганской долины. Административный центр – городской поселок Акалын. Население представлено узбеками, таджиками, кыргызами, есть русские и другие национальности. В районе преобладает сельское хозяйство: вся территория его распахана под поля хлопчатника и зерновых культур.

– В районе 25 общеобразовательных школ, специализированная школа-интернат, – рассказывает старший инспектор-психолог группы по делам несовершеннолетних майор Узокбек Хасанов. – В общей сложности в общеобразовательных учреждениях обучается более 20 тысяч человек.

Главное в работе с детьми и подростками – профилактика правонарушений. С этим отлично справляются инспекторы-психологи лейтенанты Бекзод Хасанов, Жасурбек Тухтасинов и Одилжон Жураев. Они постоянно находятся на вверенных участках, беседуют с учениками, проводят профилактическую работу.

Следователю следственной группы при Улугнорском РОВД старшему лейтенанту Мухрабеку Марупову приходится расследовать уголовные дела, связанные с кражами, дорожно-транспортными происшествиями, мошенничеством, хулиганством.

– Сейчас у меня в производстве находится неординарное уголовное дело, связанное с угоном автомашины, – рассказывает старший лейтенант М. Марупов. – В органы внутренних дел с заявлением обратился житель города Ташкента, А. К. Он сообщил, что у него угнали автомобиль «Нексия-2», оставленный у ворот дома родственников, проживающих в махалле Обод Улугнорского района.

По области был объявлен план «Перехват». Спустя несколько часов сотрудники ДПС обнаружили угнанный автомобиль на берегу Большого Ферганского канала в Алтынкульском районе. В ходе предварительного осмотра было установлено, что автомобиль совершил столкновение. В салоне машины эксперты-криминалисты обнаружили отпечатки пальцев трех человек. После загрузки данных в АДИС «Папилон» были установлены личности угонщиков. Ими оказались жители областного центра 17-18-летние парни. По подозрению в совершении пре-

ступления они были задержаны.

В ходе предварительного расследования было установлено, что ребята решили угнать автомобиль и продать его. Приехали в Улугнорский район, заметили оставленную без присмотра автомашину, да еще с ключами в замке зажигания, не долго думая, угнали автомобиль. По дороге не справились с управлением и врезались в столб. Откатив автомашину на берег канала,

следственной группы при Улугнорском РОВД майор Аброрбек Рузиев, инспектор профилактики капитан Марибон Мусаев, старший оперуполномоченный группы уголовного розыска капитан Сайдулло Абдурахимов, помощник дежурного оперативной дежурной части старший сержант Абдурашид Абдумажидов, инспектор группы миграции и оформления гражданства старший сержант Сарвар Мирзаев.

Одно из главных направлений в деятельности штаба третьего сектора – трудо-



**Следователь следственной группы при Улугнорском РОВД старший лейтенант Мухрабек Марупов.**

правонарушители скрылись с места происшествия. В отношении угонщиков возбуждено уголовное дело по п. «б» ч. 2 ст. 267 Уголовного кодекса Республики Узбекистан. Ведется следствие.

Отлично справляются со служебными обязанностями, являясь примером для других сотрудников, начальник

устройство молодежи. К примеру, недавно трудоустроено 60 молодых людей в сферу строительства, сельского хозяйства, на частные и государственные предприятия. Часть молодежи задействована на общественных работах по благоустройству махаллей. Некоторым молодым людям выделено



**Комендант Улугнорского РОВД рядовой Уринбек Тешабоев.**

44 гектара пахотных земель для выращивания сельскохозяйственных культур, 46 парней получили долгосрочные кредиты для развития бизнеса.

Для привлечения молодежи к занятиям физкультурой и спортом организуются спортивные и культурно-массовые мероприятия. В них принимают участие сотни молодых людей.

В результате целенаправленной работы удалось трудоустроить 560 человек, основная часть из которых женщины. На введенном в строй предприятии по переработке хлопка обрели работу 500 женщин. В ближайшем будущем начнет работу хлопчатобумажный цех, где будут созданы рабочие места еще для 500 представительниц прекрасной половины общества. Сейчас они обучаются будущей профессии.

Также налажено четкое обеспечение жителей махаллей баллонами с бытовым газом. За счет реконструкции силовых электрических подстанций электроэнергия в дома сельчан подается без перебоев, жители в полной мере обеспечены чистой питьевой водой.

– Во всех махаллях третьего сектора оборудованы спортивные площадки (воркауты), где молодежь на свежем воздухе занимается спортом. Главные преимущества уличного воркаута – доступность. Заниматься здесь может любой желающий. Нет рамок и ограничений. Можно создавать упражнения и их комбинации, делая тренировки интересными и полезными, – рассказывает начальник Улугнорского РОВД подполковник Баходиржон Шерматов. – Улугнорский РОВД взял шефство над общеобразовательной школой № 17, расположенной в махалле Мингчинор, откуда до райцентра около 20 километров. Образовательное учреждение, где обучаются 500 школьников, построено в 1976 году, с этого времени его не ремонтировали.

Директор школы подполковник в отставке Алижон Хамрокулов прилагает все усилия, чтобы школа не отличалась от других. С помощью спонсоров приобретена новая мебель, посуда для школьной столовой, книги для библиотеки, установлен бойлер для подачи горячей воды в столовую. В настоящее время ведутся работы по благоустройству прилегающей территории.

**Борис КЛЕЙМАН,  
соб. корр.**



**Старший инспектор-психолог по вопросам несовершеннолетних группы по работе с молодежью и несовершеннолетними ОПП СОБ Улугнорского РОВД майор Узокбек Хасанов с учащимися общеобразовательной школы № 21.**

# MA'RIFAT BO'STONI

## HAYKAL

Buxoroda qadim imoratlar ko'p. Bu ko'hna shahar ko'chalarida xayolchan kezarkanman bir to'da sayyohlar boshi bulutga chulg'angan minoraga qarab turishganini ko'rdim. Ularga keksa bir ilmiy xodim minora tarixini tushuntiriyapti. Quloq soldim.

— Yetti yuz yil bo'lgan bu minoraning qurilganiga. Sayyoohlар hayrat bilan yoqalarini ushlashdi.

Men bu xil yodgorliklarni ko'p ko'rganman. Armanistondagi to'rt ming yillik Dvin xarobalari, Kegart qal'alarini, necha ming yillar muqaddam yozilib bizga yetib kelguncha toshga aylangan kitoblarni ko'rganman. Shularni odam yaratgan, ularda odam qo'lining izi bor.

Buxoro ko'chalarida kezarkanman juda ko'p xotiralar xayolimdan o'tadi. Asrlar qa'rida qolib ketgan jang-u jadallarni ko'rgandek, qilich-qalqonlarning jarangini eshitgandek bo'laman.

Bularning barini tarix shamollari uchirib ketdi. Odamlarning xotiridan yulib ketdi.

Ammo ko'hna devorda qolgan besh barmoq izi hali ham ko'rinish turibdi. Bu ming yillar qa'rida yo'q bo'lib ketgan odam qo'lining izi. Shu azamat binoga g'isht tergan me'mor qo'lining izi. Odam qo'ligina odamga abadiy haykal qo'yishiga ana o'shanda ishonganman.

**Said AHMAD,  
O'zbekiston Qahramoni, xalq yozuvchisi.**

nomard oz so'raydi, ortiqcha bersang ham rozi bo'lmaydi.

\*\*\*

Yomon do'st soyaga o'xshaydi. Peshoningga kun tug'sa, qochib qutula olmaysan, boshingda bulut to'plansa, izlab topa olmaysan.

\*\*\*


Do'sti yo'q bilan sirlash, do'sti ko'p bilan siylash. Qayg'usizdan uzoq qoch, qayg'uliga quchoq och.

\*\*\*

Yurakning maslahatiga amal qilib gapirilganda gap yolg'on chiqmaydi. Yurakning aytganiga kirmay, nafsning buyurganini qilsang, so'zsiz adashasan.

\*\*\*

Bahs – bu ham aslida ilm o'rganishning bir yo'li. Biroq unga ortiqcha hirs qo'yish yaramaydi. Chunki bahsga ortiqcha hirs qo'yishdan mag'rurlik, maqtanchoqlik, xusumat, yolg'onchilik, hatto arzimagan narsadan janjal chiqarish va birovga musht ko'tarish kabi yomon fazilatlar tug'iladi.



## ABAY HIKMATLARIDAN

Yaxshilikni bilganga qayish, noshukurga qayishmoq qadrni yerga urmoqdir.

\*\*\*

Mard ko'p so'rasha ham ozga rozi bo'ladi,

## ABDULLA QAHHOR VATAN VA VATANPARVARLIK HAQIDA

- Men ko'kragimni ko'tarib yurishga o'rganib qolgan yigitman. Men o'z yurtimda musofir itday dumimni qisib yurishni xohlamayman.
- Uyingni o'g'ri bossa, o'g'lingni sandiqqa solib qo'yib, qo'shningni chaqirmaysan.
- Xalqni ko'rgani, yurtga qaragani bo'yи yetmaydigan odamchaning oftobshuvoqda qornini yalab, orqa oyog'i bilan bo'yinini qashlab yotgan mushuk boladan farqi yo'q.
- Xalqning qalbiga uzoqdan qo'l solib bo'lmaydi, qo'l solish uchun uning oldiga borish kerak.
- Yurtni obod qilaman degan kishi o'zi obod bo'ladi. Yurtdan chiqish tiriklay go'rga kirish degan so'z.
- O'zbek dehqoni o'z qo'liga olgan tuprog'imiz haqiqatan oltin tuproq bo'lib qoladi.



Shubhasiz, bolalik menda o'z tamg'asini qoldirgan. Men qiziqarli davrda tug'ilganim, Shakar ovulida, qadimgi patriarchal muhitda katta bo'lganim uchun taqdirimdan minnatdorman. Mening momom oqila, ko'p narsalarni biladigan, ziyorak, chevar va oqin ayol edi. Momom mening olamni poetik idrok etishim, anglashimga yordam berdi. U kishi aytib bergan ertaklar, qo'shiqlar, rivoyatlar, u muloqotda bo'lgan odamlar — bari-bari menga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadidi. Agar bir kuni erta tongda momom yuzida tabassum bilan, qo'shni ayolning ko'zi yoriganini aytsa bo'ldi, men o'rnimdan dik etib turib yuvinishim, so'ngra ularni qutlagani birga borishim kerakligini bilar edim. Bu qo'shninikiga borib, uni qutlashgina emas, avvalo ko'rishuv, har xil aytishuv, laparlari bilan tantana yushtirish uchun ham vaj edi. Bunaqa bayramlarda hamma bolalar qatnashar, hech kim ularga chaqaloqni karamzor ichidan topib oldik, deb aytmas edi. Hozir bolalar kattalar hayotida kamroq qatnashadilar, ular bu paytda bolalar bog'chasida shu bog'chaga oid qo'shiqlarni kuylab o'tirgan bo'ladilar. Mening fikrimcha, hech bir hodisa bolalarni chetlab o'tmasligi kerak. Shundagina ular SHAXS bo'lib kamolga yetadilar.

**Chingiz AYTMATOV,  
yozuvchi.**



## INDIRA GANDI

Indira Gandhi mustaqil Hindistonning birinchi bosh vaziri Javoharla'l Neruning qizi. Javoharla'l Neru 1964-yilda vafot etgach, u Axborot va radioeshittirish vaziri bo'ldi. 1966-yilda Shastri vafotidan keyin Indira Gandhi Hindistonda bosh vazir bo'lgan yagona ayol sifatida faoliyat olib bordi.

Indira Gandhi davrida Hindistonda o'rtacha umr ko'rish 32 yoshdan 55 yoshga ko'tarildi va qashshoqlik chegarasida yashayotgan aholi ulushi 60 foizdan 40 foizga tushdi.

## INDIRA GANDI HIKMATLARIDAN:

Bobom menga bir kuni ikki turdag'i odamlar bor, dedi: ishlaydiganlar va bahona izlaydiganlar. U mendan birinchi turdag'i odamlar qatorida bo'lishni so'radi: u yerda raqobat anchagini kam.

\*\*\*

Yaqinda siz ko'tarilgan cho'qqingiz eng quyi cho'qqilardan biri ekanligini tushunib yetasiz. Bu tog' qa-

Bizning bugungi harakatlarimiz ertangi kunimizni shakllantiradi.



## Маҳалла тинч – юрт тинч

Инсон учун эзгу ният билан бажарилган иш «мева»-сидан ширина нарса бўлмаса керак. Жиноятчиликнинг олдини олиш учун астойдил ҳаракат қилаётган Шеробод тумани ИИБ ходимлари жорий йилнинг дастлабки 8 ойи мобайнида жиноятчиликни камайтиришга эришдилар. Албатта, кўпчиликни кўрилган чоралар, машаққатли меҳнат самараиси қувонтирса-да, шахсий таркиб ҳушёрликни асло сусайтиргани йўқ. Айниқса, ҳуқуқбузарликлар профилактикаси йўналиши ходимлари ҳар бир ҳудуддаги ҳолатдан хабардор бўлишга, керак бўлса, жиноятларни «иссиқ изида» фош этилишига ҳисса қўшишаётир.



## ҲАРАКАТ БЕСАМАР КЕТМАСА...



**Суратда:** Шеробод тумани ИИБ ЖХХ ҲПБ катта инспектори, капитан Муродали Холиқов маъмурий назоратдаги шахс билан профилактик сухбат ўтказмоқда.

Ўтган вақт мобайнида шахсан профилактика инспекторлари томонидан учта жиноят аниқланди, қидирудаги 4 нафар шахс ушланиб, тергов органлари топширилди, – дейди туман ИИБ ЖХХ ҲПБ бошлиғи, майор Хайриддин Мусилов. – Илгари судланган 30 нафар шахснинг 23 нафарига нисбатан маъмурий назорат ўрнатилди. Бундан ташқари, маъмурий ҳуқуқбузарлик содир этган 1864 нафар шахс профилактик ҳисобга олиниб, улар билан якка тартибда профилактик ишлар олиб бориляпти.

Албатта, бу саъи-ҳаракатлар ўз натижасини беряпти. Буни муқаддам судланганлар ўртасида жиноятчиликнинг 22,6 фоизга, вояга етмаганлар жинояти 66,7 фоизга камайганида ҳам кўриш мумкин. Қолаверса, ҳудудда мавжуд 48 та маҳалладан 18 таси «сариқ», 20 таси «яшил» тоифага кирган.

Туманда «Обод ва хавфсиз маҳалла» қўшма тадбири бўйича профилактика инспекторлари томонидан

маҳаллаларда яшовчи ижтимоий кўмакка муҳтож ва ғайриижтимоий хулқ-атворли шахслар ҳақида «маҳалла тўртлиги»га хulosалар берилди. Ушбу 2029 та хulosalar томонидан ўрганилиб, ушбу шахсларнинг муаммолари ижобий томонга ҳал этилмоқда.

Профилактика инспекторлари томонидан йил бошидан бери расмийлаштирилган маъмурий баённомалар ҳам қайсиидир маънода, фуқароларни тартибга чақириш, жамиятда қонун-қоидаларга бўйсуниб яшаш лозимлигини сингдиришга хизмат қиласди. Умуман, бугун катта масъулиятни бўйнига олган профилактика инспекторлари маҳаллаларда соглом муҳитни шакллантириш, оиласарда низоларни камайтириш, умуман, барча бир-бiri билан иноқлиқда яшashi кераклигини ўқтиришга ҳаракат қилишмоқда.

**Феруза РАҲМОНҚУЛОВА,**  
ӯз мухбиримиз.

Сурхондарё вилояти.



## Қорадори-2023

Жорий йилнинг ўтган даврида  
Жиззах вилояти  
ИИБ ЖХХ ЖТСБ  
Кинология бўлин-  
маси шахсий тар-  
киби томонидан  
гиёҳвандлик билан  
боғлиқ 67 та жи-  
ноят фош этилган.  
Мазкур жараёнда  
қонунбузарлардан  
4 килограмм  
360,7 грамм мари-  
хуана, 487,79  
грамм гашиш,  
224,21 грамм  
опий, 207 грамм  
психотроп модда-  
лар, 2 килограмм  
628 грамм кўкнори,  
235 туп каннабис  
ҳамда 1232 туп  
кўкнори олинган.

## «СЭМ» ИЗЛАШГА КИРИШГАНДА...



Жумладан, вилоятнинг Дўстлик туманидаги «Манас-14» ЙПХ масканида ички ишлар органлари ходимлари «Кобальт» ру-

сумли автомобилни тўхта-  
тиб, текширишди. Мазкур жараёнда вилоят ИИБ ЖХХ ЖТСБ Кинология бўлинма-  
си инструктор-кинологи,

сафдор Шавкат Бегимқу-  
ловнинг «Сэм» лақабли хизмат ити автоуловда бўлган йўловчи томон ин-  
тилиб, ҳура бошлади.

Табиийки, фуқаро шахсий тинтубдан ўтказилди. Натижада, Сурхондарё вилояти Бойсун тумани Юқори маче қишлоғида истиқомат қилувчи З.Я.нинг чўнтағидан 200 грамм гашиш топилди. Фаллаорол туманидаги «Сангзор-15» ЙПХ масканида кичик инспектор-кинолог, сержант Файрат Кўчимовнинг «Кана» лақабли хизмат ити «Спарк» русумли автомашина йўловчisi, Қашқадарё вилояти Кўкдала тумани «Чувуллоқ» маҳалла фуқаролар йиғинида яшовчи Р.У.нинг чўнтағидан бўлган 200 грамм опий ҳамда 9,56 грамм марихуананинг «эркин савдо»га чиқиб кетишининг олдини олишга сабабчи бўлди.

**Алижон  
АБДУСАТТОРОВ,**  
ӯз мухбиримиз.  
Жиззах вилояти.

## Iste'mol qilish zarur bo'lgan sabzavotlar

O'z sog'lig'iqa befarq bo'lmagan odamning ratsioni vitaminlar va minerallarga boy bo'lishi kerak. Zarur vitaminlar va foydali elementlarni quyidagi sabzavotlar tarkibidan topish mumkin.

### SABZI

Sabzi tarkibida V, RR, S, E, K guruhlari vitaminlari bor. Bundan tashqari, uning tarkibida karotin bor, u inson organizmida A vitaminiga aylanadi. Bu ko'z uchun juda zarur modda hisoblanadi. Sabzi, shuningdek, osh-qozon osti bezining zarda chiqarish jarayonlarini faollashtiradi, tonik ta'sirga ega va inson immunitet tizimini faollashtiradi.

### POMIDOR

Pomidor S vitaminini, kaliy, foliy kislotasi va K vitaminiga boy, lekin pomidorlarning eng qimmatli xususiyati – ular kuchli antioksidant va likopen moddasining asosiy manbayi hisoblanadi. Likopen — yurak xastaliklari va saraton xavfini kamaytiradi. Ushbu moddaning ko'pi kerak emas, inson organizmi

ushbu moddaning ozgina qismini qayta ishlashga qodir. Mutaxassislar kuniga 22 mg tashiya qildilar. Buning uchun ikki osh qoshiq tomat pyuresini yeyish kifoya.

### SARIMSOQ

Sarimsoq tarkibida ko'p miqdorda allitsin mavjud bo'lib, u dorivor xususiyat-larga ega. Bundan tashqari, sarimsoq xolesterin va qon bosimini kamaytirishga qodir va ayni paytda u nol kaloriya tarkibiga ega.

### BROKKOLI

Uning tarkibida ozuqa tolasi, oqsil, kalsiy, kaliy, S vitaminini miqdori sabzavot-larga qaraganda ko'proq. Shu bilan birga, ushbu yashil gul muzlatilgan holda ham o'z foydali xususiyatlarini saqlab qola oladi. Shuning uchun, iloji boricha tez-tez

brokkoli yeyishga harakat qiling.

### BAQLAJON

Tarkibida ko'p miqdorda ozuqa tolasi bor, bu toksinlar bilan birga tanadan ortiqcha suyuqlikni chiqarib tashlashga yordam beradi. Shuningdek, eruvchan shakar, pektin, oqsillar, kaliy, kalsiy, fosfor, temir, magniy, natriy, S, B1, B2, B5, RR vitaminlariga ham boy. Aytmoqchi, RR vitaminini nikotingga qaramlikdan xalos bo'lish uchun kerak.

### BULG'OR QALAMPIRI

S vitaminini miqdori bo'yicha u na'matak va qora smorodinadan keyin ikkinchi o'rinda turadi va sabzavotlar orasida u mutlaq champion hisoblanadi. Qalampirda yurak va qon tomirlarining ishini qo'llab-quvvatlay-



digan noyob P vitaminini ham mavjud.

### KARAM

Ovqat hazm qilish tizimiga foydali ta'sir ko'rsatadi, metabolizmni rag'batlantiradi, tanani yumshoq tozalaydi, toksinlar va xolesterinni olib tashlaydi. Bundan tashqari, atigi 100 gramm yangi yoki tuzlangan karam sizni 69 mg S vitaminini bilan ta'minlaydi. Kuz-qish davrida aynan kerakli yegulik!

### LAVLAGI

Bu sabzavot tabiiy shakar manbayi hisoblanadi. Shirin ildizli ekin vitaminlar va mikroelementlarga, jumladan, yod, magniy, kaliy, kalsiy, temir va fosforga boy. Lavlagi ovqat hazm qilish va metabolizmni yaxshilaydi, organizmdan toksinlarni olib tashlaydi, oshqozon, jigar va yurak-qon tomir tizimining ishiga foydali ta'sir ko'rsatadi.

## ПОЛЕЗНЫ ЛИ ЭТИ ПРОДУКТЫ?

**То, что мы едим, влияет на наше здоровье. Одни продукты действуют на организм благотворно, другие увеличивают риск развития тех или иных заболеваний. Рак тут не исключение. Часть продуктов провоцирует набор веса или развитие диабета 2-го типа – эти заболевания тоже увеличивают шансы на онкологические заболевания. Другая содержит канцерогены – опасные вещества, которые вызывают рак.**

При онкологических заболеваниях клетки организма в результате мутации начинают бесконтрольно размножаться. Спровоцировать данный процесс могут следующие факторы: генетическая предрасположенность, воздействие неблагоприятной экологии, ионизирующее излучение, старение, некоторые вирусы, неправильное питание. Большую часть из перечисленного мы не в силах нивелировать, но повлиять на качество своего питания может каждый человек. Достаточно знать какие продукты вызывают рак и исключить их из своего рациона.

Ниже перечислены опасные продукты, потребляемые многими людьми практически каждый день.

### ПЕРЕРАБОТАННОЕ МЯСО

Колбаса, сосиски, сушеное мясо, ветчина и другие подобные продукты очень вкусные, но к полезным отнести их сложновато. Если говорить о раке, то есть продукты из переработанного мяса нужно с осторожностью: надо помнить, что при производстве многих из них могут использоваться или образовываться канцерогены. Сокращайте потребление колбасы, заменяя ее отварным или запеченным мясом.

### КАРТОШКА ФРИ

Продукты, приготовленные при высокой температуре, вкусны. Картошка фри – любимое блюдо многих из нас. Но, при обжаривании в масле при высоких температурах выделяется акриламид. Это характерно для продуктов, которые содержат много крахмала, то есть как раз для картошки. Акриламид совершенно точно вызывает рак у животных и внесен в список потенциально опасных для человека канцерогенов. Кро-



ходимо быть крайне осторожными. Если вы отвлеклись и не заметили, как появилась черная

корочка, то такую еду лучше не есть.

Приготовление на гриле опасно сразу в двух направлениях: пережаренные продукты содержат гетероциклические амины, а дым от мангала часто разносит полициклические ароматические углеводороды. И те и другие внесены в список канцерогенов и вредны для здоровья.

### САХАР И ПРОСТЫЕ УГЛЕВОДЫ

О том, что и сахар, и быстрые углеводы не самый здоровый выбор для тех, кто заинтересован в правильном питании, хорошо известно. Но не все знают, что употребление таких продуктов

повышает риск заболеть раком. Дело в том, что диета с большим количеством простых углеводов и сахара, в большинстве случаев приведет к набору веса. Ожирение – тот самый фактор риска, который провоцирует многие формы онкологии. Сокращайте потребление сахара и обратите внимание на продукты из цельнозерновой муки, круп долгого приготовления и бурого риса.

### КОНСЕРВИРОВАННЫЕ ТОМАТЫ

Скорее всего, вы слышали о том, что питательное вещество под названием «ликопин», содержащееся в томатах, снижает риск развития онкологических заболеваний. Однако это преимущество теряет всякий смысл, когда томаты консервируют, ведь химикаты, содержащиеся в оболочке консервных банок, нарушают гормональный фон в организме человека. Так как томаты очень кислые, химикат под названием «бисфенол А» в буквальном смысле проникает из оболочки банок внутрь консервации. Это ядовитое вещество вызывает рак, сердечно-сосудистые заболевания и нарушения репродуктивной функции. В следующий раз, когда будете готовить аппетитный красный соус, купите томатную пасту в стеклянной банке или потушите их самостоятельно.

**Мафтуна ХАМРАКУЛОВА,  
врач-онколог.**



Хизматларда

## ГУЛИСТОНДА ТОНГ ОТГУНЧА...

**Одатда катта-кичик кўнгилсизликлар рўй берган пайтда ишлар органлари ходимлари «ўт ўчирувчи» вазифасини бажаришади. Тушунмовчиликлар, жанжаллар, безорилик, тартиббузарликларнинг олдини олишда улар камарбаста.**

Сирдарё вилояти ИИБ ЖХХ ЖТСБ ППХ батальони командирининг хизмат бўйича ўринбосари, капитан Қобилжон Сариев ходимларни кечки навбатчиликка жўнатар экан, фуқаролар билан мулоқотда хушмуомала бўлишни, уларга кўмак беришни, ҳуқукбузарликларнинг олдини олишни қайта-қайта тайнинлади. Тегишли топшириқ олган ППХ батальони сафдор ходими, сафдор Маъруфжон Маҳмудов шериги билан «Тараққиёт» маҳалласига йўл олди. Маҳалла шаҳар марказида жойлашган. Атрофда тор ҳовлили уйлар ҳам бор. Кеч тушиб қолган бўлса-да, кўча гавжум.

Осойишталик посбонлари хизматни одатдагидек кўчаларни айланышдан бошлашган кезда рация



орқали маҳалладаги хонадонлардан бирига бориш топшириги берилиди. Айтилган манзилга етиб боришганида, жанжаллнинг устидан чиқишиди. Профилактика инспектори ҳам шу ерда экан. Эр-хотин ўртасида келиб чиқсан жанжалга оиласидаги етишмовчилик сабаб бўлган экан. Аёл эрини маошини бошқа жойларга сарфлашда, уйига пул олиб келмаслиқда айблайди. Хуллас, уларни тинчлантиришнинг ўзи бўлмади. Зарур маслаҳатлар, огохлантиришлар беришиб, бир кўнгилсизликнинг олдини олиб, кўчага чиқишанида тунги ўнлар бўлиб қолганди.

Қайтишда вокзал яқинидаги ўринидек ўтирган ўрта ёшлардаги шахсга кўзлари тушди. У кеч бўлиб қолганига қарамай, кетишини хаёлига ҳам келтирмасди. Ходимларнинг яқинлашаётганини кўриб, у безовта бўлиб қолди. Ходимлар уни тинчлантириб, ҳолатга ойдинлик киритишга уринишиди. Маълум

бўлишича, жиззахлик бу шахс автобусга кеч қолгани боис тунни шу ерда ўтказмоқчи экан. Маъруфжон Маҳмудов рация орқали раҳбариятга вазиятни тушунтириди. Фуқаро шаҳардаги реабилитация марказига жойлаштирилди.

...Тонг отганида салқин ҳаво этни жунжиктира, посбонлар эса буни сезмагандек сергак ҳолда хизматни давом эттиришарди. Қувонарлиси, тун давомида бирорта жиддий қонунбузарлик содир бўлмади. Посбонлар тунги хизматни тугатиб, уйига қайтишаётгандан одамлар иш, ўқиш тараддуудида ғимирлаб қолишганди. Улар осойишта ўтган бу тунда бир неча шахс мижжа қоқишимаганини хаёлига ҳам келтирмай, ўз манзиллари томон ошикарди.

**Абдураҳмон МУСТАФОҚУЛОВ,  
ўз мухбirimiz.**

Сирдарё вилояти.



Жиноятга жазо муқаррар

## ТИЛЛА ВАСВАСАСИДА

**Ички ишлар органлари ходимлари бинонинг иккинчи қаватида жойлашган заргарлик дўконини эҳтиёткорлик билан кўздан ке-чиришмоқда. Хусусан, эксперт-криминалист эшик ва деразалар, панжаралар ҳамда қимматбаҳо буюмлар сақланадиган шиша қутилардан бармоқ излари нусхаларини олаётир. Жиноят қиди-рив бўлими ходимларидан бири теваракдаги кузатув камераларини кўздан кечиришга киришди, бошқаси эса кимdir ўғрини кўрган бўлишига умидланиб, гувоҳ қидиряпти.**

7 миллион 500 минг сўмлик 4 жуфт олтин сирға, 10 миллион 500 минг сўмлик 35 жуфт кумуш зирақ, 1800 АҚШ доллари, дея ёзилган қоғозга кўз югуртирган ходимлардан бири дўкон эгасидан ўпкаланди: «Кузатув камераси, сигнализация ўрнатинглар, хабарлов тизимиға уланинглар, деб неча марта айтдик, мана оқибати...». Қисқаси, тунда кимdir дўкон эшиги панжарасини, сўнг алюминий профилли эшикни бузиб, тилла ва кумуш тақинчоқлар ҳамда хориж валюталарини олиб кетганди.

Дастлабки хулоса шу бўлди, эшик панжарасини бузган инсон жисмонан бақувват, чунки у темир ромнинг пайвандланган жойини кўчириб юборган. Шунингдек, теваракдаги кузатув қурилмаларининг тасвирга олиш доирасига кирмаган. Демак, келишдан олдин воқеа жойини ўрганган ёки яқин атрофда яшайди. Бу ишни дўкондорнинг танишларидан бири қилган бўлиши ҳам мумкин. Бироқ жабралавувчи ёч кимдан гумон қилмаслигини билдиromoқда.

Суриштирув ишлари кетаётган кунларнинг бирида кутилмаганда дўкон эгаси кўнгироқ қилиб, бир қиз кумуш сирға сотиб олишни таклиф қилгани, ўша тақинчоқ унинг дўконидан ўғирланган бўлиши ҳам эҳтимолини билдириди...

Жиззах вилоятининг Бахмал тумани маркази Ўсмат шаҳарчасида яшовчи шахс кумуш сирғани 240 минг сўмга

сотган қизнинг кимлигини билиши аниқланди.

Суҳбат давомида қиз сирғани таниш ийит совға қилгани, тақинчоқ тўғрисида ота-онасига изоҳ беришдан қочиб, сотиб юборганлигини маълум қилди. Орадан озроқ вақт ўтгач, гумон қилинувчи қўлга олинди. Шахсий тинтувдан ўтказилганида, унинг ёнидан 12 жуфт кумуш сирға топилди.

— Мазкур жиноят Ўсмат шаҳарча фуқаролар йиғинида яшовчи С.Х. ҳамда Д.П. томонидан содир этилгани аниқланди, — дейди Бахмал тумани ИИБ ҳузуридаги тергов гуруҳи терговчиси, катта лейтенант Фарруҳ Йўлдошев. — Ўрта умумтаълим мактабининг 11-синфида таълим оладиган ушбу ёшлардан бирининг ота-онаси хорижда ишлайди, бола қариндошлари қўлида улғаяётгани учунми, тарбиясида ноқисликлар бор, ўжар, муштлашишга мойил. Бошқасининг отаси тадбиркор, унинг моддий таъминланишида камчилик бўлмаган. Шунга қарамай, хулқида оғиш бор, ота-онасига бўйсунмай, кечалари санғиган.

Жиноят содир этилган куни ҳам иккови ароқ ичган, маст ҳолда режа тузишган. Из қолдирмаслик учун тунги соат 00:30 да ниқоб ва қўлқопда ўғирлик қилишган. Эшик панжарасини икковлашиб бузган. Хуллас, ўсмирларнинг жазо олиши тайин, айни вақтда суд ҳукмини кутишяпти...

**Алижон АБДУСАТТОРОВ,  
ўз мухбirimiz.**

Жиззах вилояти.

## «ҚИЗЧА, ЗИРАГИНГНИ БЕРИБ ТУР»

**Миробод туманининг Қўйлиқ 4-даҳаси. Кўп қаватли уйларнинг олдида 5-6 ёшлардаги икки қизча ўйнаб юрарди. Шу пайт қаердандир бола етаклаган бир аёл пайдо бўлди.**

Фарзона (исм-шарифлар ўзгаририлди) исмли ушбу аёл қизалоқлардан бирининг қулоғидаги тилла зиракни кўриб, «иштаҳаси очилиб» кетди. У тезда режа тузиб, ён-атрофга кўз югуртириди. Ҳеч ким йўқлигига ишонч ҳосил қилгач, зиракли қизчанинг дугонасига жуда чанқаб кетганини айтиб, уйидан сув олиб чиқишини илтимос қилди. Қизча «хўп», деба ўйи томон кетди.

Қизча сувга чиқиб кетганлигидан фойдаланган Фарзона дугонасани алдаб, узокроқча олиб кетмоқчи бўлди. Уйида ҳар хил ўйинчоқлар борлигини айтиб, уни ўзи билан юришга таклиф қилди. Қизча ҳам меҳрибон аёлнинг гапларига ишониб, унинг ортидан эргашди. Бу ердан сал узоқлашганидан кейин аёл асл мақсадини амалга оширишга киришиди.

— Исминг нима қизим? — деди аёл.

— Зарина.

— Заринахон, зирагинг бунча чиройли экан. Қизимга ҳам худди шундай зирак олиб бермоқчи эдим. Кел, шуни қизимга бир тақиб кўрайлик. Агар ярашса унга ҳам худди шунақасидан олиб берардим.

Қизалоқ «хўп» дедида қулоғидаги зирагини ечиб берди. Шу онда Фарзона қизалоқа: «Сени онанг чақираётгандага ўхшайди, ана, қара, кимdir Зарина деяпти», деба қизалоқни уйи томонга жўнатиб юборди. Ўзи эса қизи билан тезда у ердан кетди.

...Она-бода «Қўйлиқ» бозорига яқин жойдаги ломбардга кирди. Дўкон эгасига зиракларни сотмоқчи эканлигини айтди. Дўкондор зираклар кимники эканлигини сўради. Фарзона зирак қизиники эканлигини, лекин шу тобда пулга жуда зориқиб қолганлигини айтди. Ломбардчи ўзича бу ўғирлик мол эмаслигига ишонч ҳосил қилгач, зиракни тарозида тортиб кўрди ва Фарзонага 400 минг сўм санаб берди.

Пулларни куртдай санаб олган Фарзона Чирчиқ шаҳрига йўл олди. Бозоридан озиқ-овқат маҳсулотларини харид қилиб ўйига кетди. Шу тариқа ўйдан бир неча кун ташқарига чикмасдан ўтириди.

...Зирагини ўғирлатиб кўйганини англаган Зарина йиғлаганча ўйига кириб борганида онанинг ўтакаси ёрилай деди. Қизи бўлған воқеани айтиб берганидан кейин югурганча кўчага чиқди. Қизининг зирагини ўғирлаб кетган аёлни излади. Лекин шу тобда кўчада бирорта аёл киши кўринмасди. Ноилож қолган она аслида қиймати 100 АҚШ доллари бўлган зираклар ўғирлаб кетилганлиги юзасидан Миробод тумани ИИОФМБга мурожаат қилди.

Кўрилган тезкор чора-тадбирлар натижасида, ушбу жиноятни содир этишда гумон қилинган Фарзона кўлга олинди.

**Жўрабек ОДИЛОВ,  
майор.**

Тошкент шаҳри.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda\_uz



## ПУТЕШЕСТВИЕ В МИР ПОЭЗИИ

**Музей, посвященный двум великим представителям отечественной поэзии – Хамиду Алимджану и Зульфие, является одним из любимых очагов духовности и просветительства не только джизакцев, но и гостей области. Символично и место его расположения. Музей разместился в реконструированном медресе Ходжа Нуриддин, имеющем 121-летнюю историю.**

Построенное в стиле национального зодчества, медресе сохранило свою уникальность. Во многом благодаря музею, это древнее духовное учреждение обрело вторую жизнь. По предложению Президента страны в 2017 году музей распахнул свои двери для посетителей.

В 16 художках собраны экспонаты, повествующие о жизни и деятельности четы литераторов. Среди



вые документы, бумажные деньги и монеты помогают представить атмосферу той эпохи. В процессе ознакомления посетителей с

Напротив этого храма поэзии установлен памятник в честь Хамида Алимджана и Зульфии. Символично, что рядом находится сквер, носящий имя еще одного писателя, политического деятеля, достойного сына узбекского народа – Шарафа Рашидова.

Своебразный комплекс в центре города, повествующий о прекрасном мире высокой словесности, окружен рядом культурных и научных учреждений. Он всегда полон посетителей, в том числе сотрудниками органов внутренних дел.



них фотографии Хамида Алимджана и Зульфии, рукописи и подлинники их произведений, документы, а также сувениры и подарки, полученные авторами от почитателей их таланта. В том числе Международные премии «Нилуфар» и Джавахарлала Неру, орден Болгарии «Кирилл и Мефодий», врученные в свое время Зульфии. Есть также уникальный сувенир – бочка для меда, преподнесенная поэтессе башкирским литератором Мустаем Каримом.

Первый фотоснимок Хамида Алимджана, любимая книга его матери, предметы гардероба, финансово-



экспонатами, сотрудники музея дают подробную информацию, отвечают на вопросы поклонников поэзии.

**Алижон АБДУСАТТОРОВ,  
соб. корр.**



## ГОРОСКОП НА НЕДЕЛЮ

(с 25 сентября по 1 октября)



**Овен.** Очень плодотворная неделя. Появится много интересных задач, за решение которых вы возьметесь с энтузиазмом. Многие дела будут удаваться благодаря контактам и дружеским связям. Омрачить настроение могут финансовые обстоятельства – есть риск выйти за границы бюджета.



**Телец.** Будьте осмотрительнее в начале недели. Ошибки очень вероятны, а проблемы могут возникнуть и на работе, и в отношениях. В среду наметятся перемены, появится возможность осуществить то, что давно задумано. Позже вас ждут приятные сюрпризы и удачные совпадения.



**Близнецы.** В начале недели вы склонны слишком торопиться с выводами, это может стать причиной ошибок. Раздражительность не добавит вам привлекательности, окружающие предпочут держаться подальше. Позже ситуация изменится, откроются новые возможности, многое будет даваться проще.



**Рак.** Неделя очень спокойная. Часто приходится откладывать запланированное, чтобы решить чужие проблемы. Возможны семейные ссоры. Сосредоточиться на работе не удастся, но это необходимо. Будет радовать состояние финансовых дел: возможны денежные поступления.



**Лев.** Осторожнее в начале недели: любой ваш поступок должен быть хорошо продуман. Страйтесь оценивать последствия каждого шага. Возможны разногласия с окружающими, конфликты. В четверг ситуация стабилизируется. Позже появится возможность многое изменить к лучшему.



**Дева.** Будет шанс заручиться поддержкой влиятельных особ, встретить единомышленников. Это хорошее время для начала любых отношений – и деловых, и личных. В конце недели вероятны денежные поступления и удачные покупки, в том числе крупные.



**Весы.** Не рассчитывайте на легкий успех. Куда вероятнее, что эта неделя станет серьезным испытанием. Возможны проблемы на работе. Решить их окажется гораздо труднее, чем вы ожидали. Страйтесь учиться новому: знания, которые вы сейчас получаете, наверняка вскоре пригодятся.



**Скорпион.** Очень важно не нервничать из-за пустяков. В начале недели легко наделать ошибок. Возможны финансовые потери. Вторая половина недели гораздо удачнее. Вероятны выгодные деловые предложения, не исключен карьерный рост.



**Стрелец.** Пострайтесь успеть как можно больше в начале недели: решить важные вопросы, завести полезные знакомства. Позже придется сбивать обороты: может ухудшиться самочувствие, вам потребуется отдых. Серьезные физические нагрузки нежелательны.



**Козерог.** Неделя очень напряженная. Сохранять спокойствие трудно. Многое идет не так, как ожидалось, приходится учитывать новые обстоятельства. С вами трудно иметь дело, но окружающие все же стараются понять вас.



**Водолей.** Можно добиться своего, но упорства и настойчивости для этого требуется гораздо больше. Проверенные методы дают нужный результат, а эксперименты не всегда удачны. Не отступайте: в ваших силах изменить ситуацию к лучшему и достичь самых важных целей.



**Рыбы.** Неделя может начаться неудачно, но уже во вторник вы заметите, что дела идут заметно лучше. Вероятен прогресс в самых важных для вас делах. Не исключены денежные поступления. Можно отправляться в поездки с друзьями и родственниками: приятные впечатления гарантированы.



Янги Ўзбекистон – янги ичкӣ шилар органлари

## МАҚСАД – ФАОЛИЯТ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ



ИИВ Жамоат хавфсизлиги департаментида ҳудудий ички шилар органлари Пробация бошқармаси бошлиқлари иштирокида малака ошириш ўкув курслари ташкил этилди. Бунда асосий эътибор иштирокчиларниг раҳбарлик масъулиятини ошириш, касбий билим ва амалий кўниммаларини янада мустаҳкамлашга қаратилди.

Ўкув курсининг дастлабки куни пробация хизматининг нуфузини кўтариш, ходимларга кулай хизмат шароитини яратиб бериш, фаолият натижадорлигини ошириш мақсадида амалга оширилаётган ислоҳотлар мазмун-моҳияти етказилди. Янги қабул қилинаётган ҳуқуқий ҳужжатлар



бўйича тажрибали мутахассислар томонидан назарий машғулотлар ўтказилди. Иккинчи куни эса, соҳавий хизматга жорий этилаётган ахборот технологиялари, электрон дастурлар билан ишлаш, уларнинг афзалликлари хусусида кўргазмали амалий машғулотлар ўтказилди.

Ўкув курси якунидан сўнг «Янги Ўзбекистон» боғида бўлиб ўтган тантанали тадбирда Ички шилар вазири ўринбосари, генерал-майор Бекмурод Абдуллаев ҳудудий ички шилар органлари пробация бошқармаларига «BYD Chazor» русумли электромобиллар ва «Дамас» автомашиналарини тантанали равишда топшириди ҳамда бир гурӯҳ фидойи ходимларни рағбатлантириди.

**Бахтиёр РАҲМАТОВ,  
подполковник**

## 234 НАФАР ЙўЛ ПОСБОНИ ИШ БОШЛАДИ



Қашқадарё вилояти ИИБ ЖХХ ЙҲҲБ томонидан жамоатчилик асосида кўмаклашувчи йўл посбонлари фаолияти ташкил этилди.

Йўл посбонлигига жами 234 нафар кўнгилли жалб қилинди. Уларнинг 49 нафари фидойи ёшлар, 178 нафари мактаб ўқитувчилариидир.

Тадбир иштирокчиларига нур қай-



тарувчи нимчалар, тўхташ ишорасини берувчи белги ҳамда маҳсус гувоҳномалар топширилди.

**Мансур ЭГАМБЕРДИЕВ,  
капитан**



**Postda**  
**На посту**

MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –  
polkovnik  
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinnbosarları –  
mayor Azizjon FAYZIYEV  
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar –  
Jahongir SHAROFBOYEV  
Erkin SATTOROV  
Navbatchilar –

Foziljon MAMASHARIPOV  
Yuliya KIM

Sahifalovchilar –  
Zokir BOLTAYEV  
Ilhom JUMANOV  
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –  
Abu KENJAYEV  
Ikrom HASANOV

### TELEFONLAR:

71-231-33-88;  
Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo'yicha:

71-231-38-74;  
97-420-89-24

Web-site: [www.postda.uz](http://www.postda.uz)

E-mail: [info@postda.uz](mailto:info@postda.uz)

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami  
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.  
O'zbekiston Respublikasi  
Iqtisodiyot va moliya  
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v  
470010860262877031101179001  
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-yozma va suratlar egasiga  
qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart.

Gazeta tahririyat kompyuter  
markazida terildi va sahifalandi.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa  
ijodiy uyi bosmaxonasida  
chop etildi.

Korxona manzili:  
Alisher Navoiy ko'chasi 30-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi  
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda  
0120-raqam bilan ro'yxatga  
olingan.

Buyurtma №V-5596.  
Bosilish – ofset usulida.  
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma  
taboq. 50435 nusxada chop etildi.

**Obuna raqamlari:**  
Yakka taribda – 180.  
Tashkilotlar uchun – 366.  
Bosishga topshirish vaqtı – 22.00.  
Bosishga topshirildi – 21.00.  
Sotuvda kelishilgan narxda.

**MANZILIMIZ:**  
100070, Toshkent shahri,  
Shota Rustaveli 1-berk  
ko'chasi 9-uy.